

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOY-IQTISODIY FAKULTET

IQTISODIY TA'LIM VA TURIZM KAFEDRASI

«Servisda innovatsion faoliyat» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarning o'rni

Bajardi: G`ulomov Ulug`bek 3-1XS-13 guruhi talabasi

Kurs ishi himoya qilingan sana “___” _____ 2015 y.

Baho “___” _____

Ilmiy rahbar: _____ ***Qodirova M.M.***

Komissiya a'zolari: _____
(imzo) (ismi sharifi)

(imzo) (ismi sharifi)

Buxoro – 2015 yil

KURS ISHI UCHUN TAQRIZ

Fakultet..... “Ijtimoiy – iqtisodiy”

Kafedra “Iqtisodiy ta'lim va turizm”

Fan “Servisda innovatsion faoliyat”

Guruh.....

Talaba familiyasi va ismi-sharifi.....

Kurs ishi mavzusi.....

.....

Kurs ishining tarkibi.....

Kurs ishi himoyasida talabaga berilgan savollar ro'yxati:.....

.....

.....

Jadval va grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning
ko'rsatgichi).....

Kurs ishining ijobiy tomonlari.....

.....

Kurs ishining kamchiliklari.....

.....

Kurs ishiga qo'yilgan baho.....

Kurs ishiga rahbarning familiyasi va ismi-sharifi.....

MUNDARIJA:

Kirish.....	4
 <i>1-Bob. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat boshqaruvini tashkil etishning nazariy asoslari</i>	
1.1. Innovatsiyalar, fan va texnika rivojining o'zaro aloqasi.....	7
1.2 Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalarning yaratilishi, sotuvi va xaridi motivastiyasi.....	9
1.3 Innovatsiyalarni turkumlashtirish va innovatsion klassifikator hamda Innovatsion bozor xususiyatlari.....	12
 <i>2-Bob. O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari</i>	
2.1 Innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	36
2.2 Innovatsion fan texnologiya yangiliklari.....	48
2.3 «O'zbektelekom» AK Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar.....	56
 Xulosa takliflar	59
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62

KIRISH

Kurs ishi mavzusining dolzarbligi. Prezidentimiz I. Karimovning “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 2006 yil 7 avgustdagi PQ-436 hamda 2008 yil 15 iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiriq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-916-sonli qarorlari yurtimizda innovatsiya sohasiga qaratilayotgan e‘tiborni yanada kuchaytirdi.

Prezidentimiz aytganlaridek, “Mahsulot raqobatdoshlogini ta‘minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo‘yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur manba va mablag‘larni topish – bu har bir korxona raxbari va muhandis – texnik xodimlarning birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo‘lmog‘i kerak”. Bu yo‘nalishda, sanoat korxonalarida samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va innovatsiyalar transferini joriy etish bir qator muammolarni vujudga keltiradi. Muammolarning asosiy qismi moliyaviy ta‘minot masalalari bilan bog‘liq, albatta.

Iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlari, birinchi navbatda, ijtimoiy aql-zakovat, samarali moliya tizimi, bilim va axborot resurslari raqobatbardoshligi majmui bilan belgilanadi va ularning asosini mamlakatning oqilona innovatsion siyosati tashkil etadi. Shubhasiz, bularning barchasi mustaqil va bir vaqtning o‘zida, muvofiqlashtirilgan bo‘lishi hamda ular o‘rtasidagi munosabatlar xalqaro norma, konvensiya va hujjatlar bilan tartibga solib turilishi lozim.

Hozirgi vaqtda innovatsiyalarning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik samaradorlikni oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta‘minlab bera oladigan davlat siyosatini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi uchun ancha murakkab, ayni vaqtda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Agar an‘anaviy ilmiy-texnik siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi bilimlarni va ilimlarni talab etibgina qolmasdan

asosan yangi bilimlarni yaratishga va ulardan amaliyotda qisman foydalanishga qaratiladigan bo'lsa, aksincha innovatsion siyosatda esa, nisbatan mukammalroq yondashuv nazarda tutiladi, bunda bilimlarni yaratish bilan teng ravishda, ulardan amaliy foydalanishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida sanoatni rivojlantirish birinchi navbatda, taraqqiyotning xom-ashyo yo'nalishidan innovatsiya yo'nalishiga o'tishi natijada butun iqtisodiyotda strategik muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bunda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyixalarni amalga oshirish bilan bog'liq»¹.

Mamlakatning innovatsiya salohiyatini oshirish va uni rivojlantirish iqtisodiyotning real sektorlari raqobatbardoshligini ta'minlashda, yangi mahsulot turlarini yaratishda, ishlab chiqarishning texnik va texnologik darajasini uzluksiz yangilanishida, boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etishda keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Bugungi kunda milliy sanoatning tovarlar va xizmatlar jahon bozoridagi qa'tiy raqobatga qo'shilishida ularning ilmiy-texnikaviy salohiyatini aks ettiruvchi innovatsiyalarning axamiyati beqiyos. Bunda ilmiy g'oyalarning amaliyotga joriy etilishi natijasida real sektorning texnologik darajasi ko'tarilishi natijasida yangi ilmtalab sohalar tez rivojlanadi, iqtisodiyotning barcha sohalariga axborot texnologiyalari faol joriy etiladi. Innovatsiyalar yangi ishlab chiqarishlar va xizmatlar sohalarining, yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi va mavjud samarasiz tarmoqlarning asta-sekin yo'qolishiga sabab bo'ladi. Demak, yangi ijtimoiy institutlar, xo'jalik tashkilotlari paydo bo'ladi, ularni o'zaro aloqalarining mazmuni qayta shakllanadi. Yaratilayotgan bunday

¹ I Karimov «Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksalishdir». //Xalq so'zi. 2010 yil. 30 yanv.

imkoniyatlar natijasida ijtimoiy mehnatning intellektual darajasi oshadi, yangi bilim resurslaridan foydalanish ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatida qo‘shimcha sinergetik samara beradi. Shuni aloxida ta’kidlash lozimki, mahsulotning yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilganligi uning sifatini belgilashi, zamonaviy, talabchan ichki iste’molchi ehtiyojlariga qaratilganligi hamda jahon tovar ayirboshlash bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi juda muhimdir. Buning uchun xom ashyoni birlamchi qayta ishlaydigan oddiy ishlab chiqarishdan, bosqichma-bosqich yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tizimiga o‘tish juda muhim bo‘lib, bunday faoliyat tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshiradi, eksport xajmini ko‘paytiradi va iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ta’minlaydi. Ana shunday ishlab chiqarishning an’anaviy modelidan innovatsion modeliga o‘tish iqtisodiyotning tarkibiy tizimini texnik –texnologik jihatdan tubdan modernizatsiya qilish, “ilm-fan ishlab chiqarish iste’molchi” o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro manfaatdorligini ta’minlash, sanoatda ilg‘or texnika ishlanmalarini yaratish va joriy etishni jadallashtirish bilan bog‘liq. Agar, bu xil vazifalar dunyodagi barcha mamlakatlarning iqtisodiyotiga keskin ta’sir ko‘rsatayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, ya’ni dunyo bozoridagi talab va narxlarning keskin o‘zgarib turishi holatida amalga oshirilishini inobatga oladigan bo‘lsak, raqobat muhitining keskinlashuvi sharoitida zamonaviy ishlab chiqarish sohasida innovatsiya faoliyatini kuchaytirish, uning texnik va texnologik bazasini mustahkamlash, uning sifat darajasini ko‘tarish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lishi lozim. Bu esa bitiruv malakaviy ishi mavzusini dolzarbligini.

Qisqa muddat oralig‘ida respublikani jahon bozoriga olib chiqish uchun umumiy ishlab chiqarish samaradorligini ko‘tarish, boshqaruv apparatining yakuniy natijalariga qaratilganligi, bozor ehtiyojini to‘laqonli qondirish kabi ishlarni bajarish lozim. Milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish, joriy iqtisodiy siyosat bo‘yicha yuqorida ko‘rib o‘tilgan masalalarni hal qilinishi bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Respublikada 2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturda 2015 yilda YAIM tarkibida sanoatning ulushini 28 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Bu

ko'rsatkichga yetish uchun tarmoqda o'sish sur'ati yiliga 10-12 foizdan kam bo'lmashligi lozim. Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish o'z navbatida, fan va ta'limning rivojlanganlik darajasi bilan birga, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning salmog'iga bog'liq. Fikrimizcha, mamlakatimiz real iqtisodiy sektor korxonalarida innovatsion yondashuvni yetarli darajada rivojlanmaganligining asosiy sabablaridan biri tarmoqdagi eskirgan texnologiyalar, ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvning sustligi, aylanma mablag'lar xamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashmaganligi, investitsiyalarni jalb etishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchidan, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalar salmog'ini YAIM ga nisbatan kamligidir. Innovatsion rivojlanish muammolari bilan shug'ullanayotgan olimlarning fikricha, ilmiy xajmdor yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun YAIM ning bir foizidan kam bo'lmagan miqdorda mablag' yo'naltirilishi lozim.

O'zbekistonda innovatsiya faoliyati asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshirilmokda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda ilmiy-texnika dasturlari, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun 2011 yilda 121,8 mlrd. so'm, 2012 yilda 153,5 mlrd. so'm va 2013 yilda 197,9 mlrd. so'm mablag'lar ajratildi. Bu ko'rsatkich YAIMga nisbatan 2012 yilda 0,19 foizni, 2013 yilda esa 0,2 foizni tashkil etgan. Demak, mamlakatimizda innovatsiyaviy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarga ajratilayotgan mablag'larni keyingi besh yil ichida YAIMga nisbatan bir foiz miqdoridagi ulushga yetkazish zarur.

1-Bob. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat boshqaruvini tashkil etishning nazariy asoslari

1.1. Innovatsiyalar, fan va texnika rivojining o'zaro aloqasi.

Innovatsiyalar, fan va texnika rivojining o'zaro aloqasi innovatsion jarayonning asosi bo'lgan yangi texnika texnologiyani yaratish va o'zlashtirish jarayonini ko'rib chiqishdan kelib chiqadi. Innovatsion jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: fan-texnika-ishlab chiqarish-iste'mol. Innovatsion jarayonning boshlanishini fundamental va izlanish xarakteridagi, ya'ni sof nazariy turdagi ilmiy tadqiqotlar bilan bog'lashadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy davrda minimal ma'lumotlar mavjud bo'lgan yoxud umuman mavhum bo'lgan tabiat xususiyatlari tadqiq etiladi. Bu kabi tadqiqotlarning natijalari bo'lib, tabiatning xususiy yoki umumiy qonun va qonuniyatlarini ochish, shuningdek, nazariy hisob-kitoblarga asoslangan holda tabiatning yangi moddiy ob'ektlari, moddalarini ochish kabilar hisoblanadi.

Yuqoridagi natijalar asosida amaliy turdagi ishlar va tadqiqotlar olib boriladi, ularni an'ana bo'yicha umumlashtirilgan holda ishlanmalar deb atash qabul qilingan. Ularga maxsus amaliy yo'nalishdagi tadqiqotlar kirib, ushbu tadqiqotlarning natijalari sifatida tor doiradagi qonuniyatlarni ochish bilan bir qatorda kelajakda sun'iy ishlab chiqariladigan moddiy ob'ektning muayyan texnik echimini yaratish yuzaga chiqadi va ular qoida bo'yicha ixtiro deb talqin qilinadi. Keyinchalik ixtiro asosida loyiha-konstruktorlik yo'nalishidagi ishlar amalga oshiriladi. (loyiha-texnologik va TKI). Bu kabi ishlarning natijasi yangi texnik ob'ektning tajriba namunasi (mashina, pribor, apparat va boshqa asbob-uskuna), yoki yangi (ilg'or) texnologik jarayon bo'lishi mumkin. So'ngra amaliy tusdagi ishlanmalar tarkibiga yangi texnikani o'zlashtirish ishlari qo'shilib, mazkur ishlar seriyali va ommaviy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga tayyorlash tadbirlarini ham qamrab oladi. Ko'pgina sohalarda sanoat ishlab chiqarish faqatgina iste'mol qiymatining birlamchi namunalarini yaratib qolmay, yangi mahsulotni sanoatda keng o'zlashtirish jarayoni yuz beradi. Ushbu holatda innovatsion jarayon yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash faoliyati sohasidan seriyali va ommaviy ishlab chiqarish sohasiga o'tadi.

So'nggi yillarda rivojlangan xorij davlatlarining diqqat markazi innovatsion jarayonning oxirgi bosqichiga taqalmoqda. Ular faqatgina ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish borasidagi chora tadbirlar muvaffaqiyatli ishlab chiqarish faoliyatini olib borish uchun etarli emas, degan fikrni ilgari surishadi. Ularning fikricha, ilmiy tadqiqot ishlarining tijoratlashuvini ta'minlaydigan barcha bo'g'inlar faoliyatini kompleks rivojlantirish lozim. Bunda asosiy rolni korporativ strategiyaning tashkiliy va boshqaruv jihatlarini o'ynaydi. Innovatsiyalarning tijoratlashtirish Buyuk Britaniya va EI davlatlarining sust tomonlaridan hisoblanadi. AQSh hamda Yaponiya kompaniyalari bu borada oxirgi yillarda maksimal muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Innovatsion jarayon bilan innovatsion salohiyat va innovatsion siyosat tushunchalari chambarchas bog'liq. Muayyan innovatsion korxona (tashkilot) yangilikni ishlab chiqarishga (qabul qilish) tayyorlig'i va qobiliyati uning innovatsion salohiyatini ko'rsatadi. Innovatsion salohiyat bu—innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan intellektual, moddiy-ishlab chiqarish, moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa resurslar to'plamidir.

Innovatsion siyosat—innovatsion strategiyaning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini hamda uning davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mexanizmlarini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bir qismidir. Davlat innovatsion siyosati quyidagilardan shakllantirilishi maqsadga muvofiq: jamiyatni rivojlantirishning optimal yo'llarini izlash; istiqbolli tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni aniqlash va ularni moliyaviy qo'llab quvvatlash; innovatsion jarayonlarni iqtisodiy tartibga solish; fan texnika yutuqlarining tez sur'atlarda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga joriy etilishini tashkiliy, huquqiy va boshqa yo'nalishlarda ta'minlash. Shunday qilib, innovatsion siyosat—innovatsion infratuzilmaning shakllanishi va kelgusida samarali amal qilishiga mos sharoitlar yaratishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar majmuasidir. Davlat innovatsion siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ko'rsatish lozim:

A) Fan va texnika inqilobini jadallashtiruvchi natijalarni olishga yo'naltirilgan fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

B) Ilg'or texnik echimga ega yangi texnologiya va texnikani yaratish hamda uni moddiy ishlab chiqarishga taqdim qilishga yo'naltirilgan ITTKlarni moliyalashtirish;

V) Innovatsiyalarni amalga oshirishga ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy qiziqishlarini ta'minlovchi qonuniy-huquqiy va axborot bazasini yaratish.

1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalarning yaratilishi, sotuvi va xaridi motivastiyasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion salohiyat va samarali innovatsion siyosat bilan bir qatorda innovatsiyalar motivastiyasi muhim o'ringa ega. Motivastiya bu belgilangan yo'nalishda faol harakatni yuzaga keltiruvchi ehtiyojlar va ularning motivlari to'plamidir. Innovatsiyalar motivastiyasi produstent va menejerni innovatsion faoliyat, fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar sotuvi yoki ularning xaridi va xo'jalik faoliyatida foydalanish yo'nalishida faol harakatiga undovchi ehtiyojlar va motivlar to'plami hisoblanadi. Fanda motivastiya qo'yilgan maqsadga erishish uchun undovchi kuchlar ta'siri borasidagi usullar va metodlar yig'indisi sifatida qaraladi. Innovatsiyalar motivastiyasini 2 jihatdan ko'rib chiqish lozim:

- Innovatsiyalarni yaratish va sotish motivastiyasi;
- Innovatsiyalar xaridi motivastiyasi.

Barcha motivastiyalar quyidagi 4 unsurdan iborat bo'ladi:

- Maqsad;
- Motivlar;
- Omillar;
- Maqsadga erishishga intilish.

Innovatsiyani yaratish va sotish motivastiyasining maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektning yangi mahsulotlar (jarayonlar) sotishdan tez foyda ko'rish hamda ushbu mablag'larni foydali tadbirkorlik yo'nalishlariga qo'yish, bozordagi mavqeini oshirish, raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Motivlar muayyan harakatga sabab sifatida joriy davrda xo'jalik yurituvchi sub'ektning ehtiyoji bilan bog'liq. Innovatsiyani yaratish va sotishning asosiy motivlari quyidagilardir:

- Yangi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish;
- Bozordagi mavqeini oshirish;
- Yangi bozorlarni egallash;
- Pul oqimlari hajmini oshirish;
- Mahsulotlar resurs sarfini pasaytirish.

Innovatsiyalarni yaratish va sotish motivlari bir qator omillarga asoslanadi:

- Raqobatning kuchayishi;
- Regulyativ ishlab chiqarish-savdo jarayonidagi o'zgarishlar;
- Jarayon texnologiyalarining takomillashuvi;
- Soliqlar tizimidagi o'zgarishlar;
- Jahon bozoridagi yutuqlar.

Raqobat bozor sharoitining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Raqobat muhitining kuchayishi xo'jalik yurituvchi sub'ektni raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni egallash bo'yicha muayyan harakatlarga undaydi.

Regulyativ ishlab chiqarish-savdo jarayoni korxona faoliyatini bozor sharoitlari va mas'ul organlar tomonidan belgilanadigan qoidalar, tartib va me'yorlarga mos ravishda olib borishga yo'naltirilgan maqsadli jarayon hisoblanadi. Ishlab chiqarish-savdo jarayonini tartibga solish qator qonunlarga asoslanib, tartibga solishning turli shakl, usul, vosita va mexanizmlaridan keng foydalanishni taqozo etadi.

Innovatsiyalar yaratilishining muhim omillaridan bo'lib, jahon bozoridagi yutuqlar hisoblanadi. Rivojlanish davrida investorlar qo'lida bo'sh pul mablag'lari paydo bo'ladi, bu esa xo'jalik yurituvchi sub'ektning ularga mahsulot va jarayonlarni taklif qilishiga zamin yaratadi. Innovatsiyalarni yaratish va sotish motivastiyasi quyidagi sxemada aks ettirilgan:

innovatsiyalar xaridi motivastiyasining maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektning bugun sotib olingan yangi mahsulot yoki texnologiya realizastiyasi natijasida kelajakda foyda ko'rish hisoblanadi.

innovatsiyalar xaridi asosiy motivlari quyidagilar hisoblanadi:

- Xo'jalik yurituvchi sub'ekt raqobatbardoshligi va mavqeini oshirish;

- Bugun qo'yilgan kapital hisobiga istiqbolida foyda ko'rish.

innovatsiyalar xaridi motivlari bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Sub'ektiv omillarga aniq mijoz manfaatlarini ifoda etuvchi omillar kiradi: uning investitsion va moliyaviy faoliyati reja va dasturlari, psixologik xususiyatlari, menejerlar kasbi layoqati va boshqalar.

Asosiy ob'ektiv omillar quyidagilardir:

- Regulyativ ishlab chiqarish-savdo jarayonidagi o'zgarishlar;
- Soliqlar tizimidagi o'zgarishlar;
- Jahon bozoridagi yutuqlar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mazkur omillar innovatsiyalarni yaratish va sotish motivatsiyasi omillari bilan mos keladi. Biroq, bu holda korxona hatti-harakatining asosida mijoz ehtiyojlari va manfaatlarini turadi.

1.3 Innovatsiyalarni turkumlashtirish va innovatsion klassifikator

Innovatsion bozor xususiyatlari

Innovatsiyalarni boshqarish mumkin. Bu shuni bildiradiki, turli boshqaruv ta'sir usullari va vositalarini qo'llash orqali innovatsion jarayonning amal qilishi, innovatsiyalarning hayotiylik davri davomiyligini oshirish, innovatsiyalar samaradorligini oshirishga ta'sir qilish mumkin. Boshqaruv ta'sir usullari va vositalarining natijaviyligi innovatsiyalar tasniflanishi, tasniflanish sxemasi va uning ilmiy asoslanganligiga bog'liq bo'ladi.

Innovatsiyalarning tasniflanishi qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun muayyan belgilari bo'yicha innovatsiyalarni guruhlariga bo'lishni bildiradi. Innovatsiyalar tasniflanish sxemasini tuzish ularning tasniflanish belgilarini aniqlashdan boshlanadi. Tasniflanish belgisi innovatsiyalar guruhining o'ziga xos bosh xususiyatlarini namoyon etadi. Ilmiy asoslangan tasniflanish har bir innovatsiyaning o'z umumiy tizimidagi o'rnini aniqlab, ushbu innovatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Bu orqali aynan shu guruhga tegishli innovatsiyalar uchun mos keluvchi boshqaruv priyomlarini samarali ishlatishga imkoniyat paydo bo'ladi. Innovatsiyalarning ilmiy asoslangan tasniflanishi, shuningdek, innovatsion jarayonni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Innovatsiyalar tasniflanishini turli tasniflanish belgilarini qo'llab, har xil sxemalarda amalga oshirish mumkin.

Ilmiy asoslangan tasniflanish 3 savolga javob berishi lozim:

1. Innovatsiyaning maqsadi nima?
2. Innovatsiyani amalga oshirish shakli qanday?
3. Innovatsiyaning qo'llanish sohasi qaer?

Ushbu uch jihat (maqsad, shakl va qo'llanilish o'rni) tasniflanish belgilari tizimini shakllantiradi. Tasniflanish belgilari tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Maqsadli belgi;
2. Tashqi belgi;
3. Tarkibiy belgi.

Innovatsiyalar tasniflanishining maqsadli belgisi quyidagi savolga javob izlaydi: "Innovatsiyaning maqsadi nima, joriy vazifani echishmi yoxud kelgusi davr vazifasini echishmi?". Ushbu ikki maqsad muayyan innovatsiyaga ehtiyojning paydo bo'lish sabablarini aniqlaydi. Innovatsiyalarga joriy ehtiyoj korxonaning xo'jalik yoki boshqa jarayonlarida krizis holatlari mavjudligi hamda ularni yangilik kiritish hisobiga bartaraf etish zaruratidan kelib chiqadi. Bunday yangilik krizis innovatsiyasini namoyon etadi. Krizis innovatsiyasini aniqlovchi asosiy belgilaridan bo'lib, mahsulotga talab pasayishi sharoitida mahsulot(xizmat, ish) realizastiyasi muammolarini echish, shuningdek, kuchli raqobat muhiti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektning bozorda yashab qolishi muammolarini hal etish hisoblanadi. Krizis innovatsiyalari xo'jalik yurituvchi sub'ektning tashkiliy, ishlab chiqarish, iqtisodiy yoki moliyaviy krizislarini bartaraf etishga yo'naltiriladi. Innovatsiyalarga strategik ehtiyoj—innovatsiyalarga istiqboldagi ehtiyoj. Ushbu ehtiyoj xo'jalik faoliyatining istiqboldagi prognozlaridan kelib chiqadi. Masalan, mahsulot raqobatbardoshligining pasayishi prognozi, korxona mavqeining tushishi, ehtimoliy bankrotlik prognozlari.

Bunda innovatsiyalarning maqsadi kelajakda mahsulot hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi.

Shunday qilib, maqsadli tasniflanish belgisiga ko'ra innovatsiyalar:

- Krizis innovatsiyalari;
- Rivojlanish innovatsiyalariga bo'linadi.

Tashqi tasniflanish belgisi innovatsiyalarni amalga oshirish shaklini namoyon etadi. Ushbu belgi bo'yicha innovatsiyalar quyidagilarga bo'linadi:

- Mahsulot innovatsiyalari;
- Jarayon innovatsiyalari.

Mahsulot innovatsiyalari buyum(jihoz) shaklida moddiylashgan innovatsiya natijasidir (stanok, mahsulot, xomashyo va h.k.).

Jarayon innovatsiyalari muayyan hatti-harakatni amalga oshirishga yo'naltirilgan va muayyan qoidalar, instruktsiyalar, hatti-harakat sharoitlari bilan belgilangan innovatsiya natijasini namoyon etadi. Ushbu innovatsiyalar sirasiga mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi, aholiga xizmat ko'rsatish, savdo shakllari, moliyaviy operatsiyalar, bozorni egallash operatsiyalari kabilarni kiritish mumkin.

Tarkibiy tasniflanish belgisi innovatsiyaning xalq xo'jalik majmuining qaysi tarmog'iga yoki iqtisodiy munosabatlarning qaysi sohasiga mo'ljallanganligini bildiradi. Ushbu belgi bo'yicha innovatsiyalarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- Ishlab chiqarish-savdo;
- Ijtimoiy-iqtisodiy;
- Moliyaviy;
- Boshqaruv.

Innovatsiyalarning tasniflanishi quyidagi rasmda aks ettirilgan:

Adabiyotlarda innovatsiyalarning turli klassifikatsiyalari berilgan. Shulardan biri – innovatsion o'zgarish intensivligiga nisbatan innovatsiyalar klassifikatsiyasidir.

Ushbu klassifikatsiyasida innovatsiyalarning darajalari (tartiblari) farqlandi.

0 – tartibdagi innovatsiyalar (dastlabki xususiyatlarni tiklash (regeneratsiyalash)). Bunda ob'ektning bor funktsiyalarini maqsadli o'zgartirish, saqlash yoki yangilash haqida fikr yuritiladi.

1- tartibli innovatsiyalar (miqdoriy o'zgarishlar). Bunda tizimning yoki uning qismining funkstiyalarini saqlagan holda miqdoriy talablarga maqsadli moslashuv haqida fikr yuritiladi.

2 – tartibli innovatsiyalar (qayta guruhlash yoki tashkiliy o'zgarishlar). Bunda tizimning yoki uning tarkibiy qismining yaxshi tashkil etilishini ta'minlash uchun oddiy tashkil siljishlar amalga oshiriladi.

3 – tartibli innovatsiyalar (adaptastion o'zgarishlar). Bunda tizimning elementlarining o'zaro moslashuvi bilan bog'liq o'zgarishlar ko'zda tutiladi. O'zgarishlarning o'zi alohida elementlar sifatini o'zgartirmaydi, ammo o'zgarishlar kompleksi tizim samaradorligini ko'tarishga xizmat qiladi.

4 – tartibli inovatsiyalar (yangi variant). Bunda tizim doirasida qisman funkstional o'zgarishlar amalga oshirilib, yangi foydali xususiyatlarga ega bo'lgan variantlar paydo bo'ladi.

5 – tartibli innovatsiyalar (yangi avlod). Bu tizimning yoki uning qismlari funkstional xususiyatlarining yuqori sifat o'zgarishlaridir. Tizimning dastlabki xususiyatlarining barchasi yoki asosiy qismi o'zgartiriladi, ammo asosiy strukturaviy konstepstiya saqlanib, mahsulotning yangi avlodi paydo bo'ladi.

6 – tartibli innovatsiyalar (yangi «tur»). Bu holda tizimning yoki uning qismining funkstional xususiyatlari sifat jihatidan o'zgartiriladi, dastlabki konstepstiya ham o'zgaradi, faqat funkstional prinstip avvalgicha saqlanadi.

7 – tartibli innovatsiyalar (yangi « »). Bu tizim yoki uning qismining funkstional xususiyatlarida oliy tub o'zgarish bo'lib. funkstional prinstip o'zgaradi.

Keltirilgan tasniflanishlar dalolat beradiki, yangilik kiritish jarayonlari ko'p qirrali hamda xususiyat jihatidan turlichadir. Mos ravishda yangilik kiritishni tashkil etish shakllari, miqyosi hamda iqtisodiyotga ta'sir usullari, shuningdek, ular samaradorligini baholash usullari ham ko'p qirraligi bilan ajralib turadi. Turli tasniflanish belgilarini qo'llagan holda innovatsiyalarni boshqarish tizimini yaratishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion klassifikatorni tuzish mumkin

Mazkur klassifikator ma'lumotlar bazasi foydalanuvchisi ehtiyojlariga muvofiq ravishda turli yo'nalishlarda innovatsiyalarni muayyan belgilari bo'yicha guruhlashga imkon yaratadi. Masalan, innovatsiyalarning miqyosi boshqaruv ta'sirlarining manzilligini belgilaydi. Innovatsiyalarning radikaligi ushbu boshqaruv ta'sirlari parametrlarini aniqlaydi. G'oya manbai uning realizatsiya imkoniyatlarini baholashga imkon beradi. Innovatsiyalarning tarqalish darajasi uning turiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, innovatsiyalarning ko'p qirraligi, sohalar turliligi va ishlatilish usullarining farqlanishi ularni turkumlash va inovatsion klassifikatorni tuzishni talab etadi. Bunda klassifikatorni shakllantirishda innovatsion jarayonlarning boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini loyihalashtirishda zarur bo'lgan hamda ushbu jarayonlarni tashkil etadigan innovatsiyalar turidan kelib chiquvchi xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Innovatsion bozor xususiyatlari

Innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish innovatsion bozor xususiyatlarini o'rganishni talab qiladi. Zero, bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyatning natijaviyligi mahsulotning bozordagi realizatsiyasiga bog'liqdir.

Innovatsion bozor bu iqtisodiyotning turli sohalarida yangi mahsulot va yangi texnologiyalar realizatsiyasida produstentlar, vositachi-sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, uning quyidagi ikki asosiy xususiyati diqqatga sazovordir:


- ✓ Innovatsion bozor bozorlarning barcha turini qamrab oladi;
- ✓ Innovatsion bozor bu doimo birlamchi bozordir.

Innovatsion bozor sub'ektlari bo'lib, produstentlar, vositachi-sotuvchilar hamda xaridorlar ko'rinishida tadbirkorlar va fuqarolar hisoblanishadi.

Innovatsion bozor ob'ektlariga quyidagilarni kiritish mumkin: moliyaviy bozor, kapital qurilish, mahsulot bozori, ishlab chiqarish texnik mahsulot bozori, turizm bozori va boshqalar.

Innovatsion bozorda savdo predmeti sifatida yangi mahsulot va texnologiyalar xizmat qiladi.

Mazkur bozorni quyidagi tarkibiy sxema bo'yicha ko'rish mumkin:



1-rasm. Innovatsion bozor tarkibiy sxemasi

Mazkur tarkibiy sxemadan ko'rinib turibdiki, bozorning ob'ektlari tarkibiga sof investitsiyalar bozori hamda ishlab chiqarish texnik mahsulot bozori kiradi.

Sof investitsiyalar o'zida asosiy vositalarni qo'lga kiritish va kengaytirishga qaratilgan kapital qo'yilmalarni aks ettiradi. Ishlab chiqarish-texnik mahsulot—bu turli asbob uskuna(texnik, energetik, kompyuter texnikasi, axborot tizimlari), transport vositalari, ishlab chiqarish vositasi va inventardir. Yuqoridagi sxema shuningdek, innovatsion bozor tarkibiy jihatdan o'zida ikki unurning o'zaro bog'liq birikuvini namoyon etadi, mazkur birikmada tadbirkorlar va sof investitsiyalar bozori asosiy o'rin egallaydi. Buning bosh sabablari quyidagilardir: Birinchidan, yangilik kiritish avvalo, tadbirkorlar uchun muhim; ikkinchidan, sof investitsiyalar bozori yangi qurilish, ob'ektlarni rekonstruktsiyalash, yangi asbob-uskunani qo'lga kiritishga kapital qo'yilmalar bilan bog'liq va h.k. Sof investitsiyalar bozori yangi qurilish va rekonstruktsiyalash funktsiyasini amalga oshirib, innovatsiyalardan foydalanishga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Innovatsion bozor taraqqiyoti uning rivojlanish strategiyasi bilan belgilanadi. Innovatsiyalar bozori taraqqiyotiga strategik innovatsion yondashuv xalq xo'jaligi turli sohalari va tarmoqlarida innovatsiyalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi maxsus tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bugungi kunda qulay innovatsion muhit, ya'ni innovatsiyalarni yaratish, realizatsiya etish va tarqatish jarayonidagi sharoitni yaratish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur muhit quyidagi maqsadli yo'nalishlarni hisobga olmag'i lozim:

- ✓ Innovatsiyalarni tadbiq etuvchi tadbirkorlarni huquqiy qo'llab-quvvatlash;
- ✓ Innovatsion jarayon faol ishtirokchilariga soliq imtiyozlarini belgilash;
- ✓ Innovatsiyalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlar guruhiga ijobiy jamoatchilik fikrini uyg'otish va boshqalar

Innovatsion g'oyalar va amaliyot

Anjuman O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Iqtisodiyot vazirliklari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «Iste'dod» jamg'armasi, Savdo-sanoat palatasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida tashkil etildi. Unda qator vazirlik va idoralar, moliyaviy va ilmiy muassasalar, sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, oliy o'quv yurtlari vakillari, shuningdek, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Gretsiya, Rossiya, Armaniston va boshqa mamlakatlardan olimlar va mutaxassislar, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Sh.Solihov, Savdo-sanoat palatasi raisi A.Shayxov, BMTning mamlakatimizdagi doimiy vakili S.Prisner, YuNESKO vakolatxonasi rahbari K.Pikkat va boshqalar O'zbekistonning ilmiy-intellektual salohiyati juda yuqori ekanini, Prezident Islom Karimov rahnamoligida mazkur soha izchil rivojlanib borayotganini alohida ta'kidladi. Fundamental ilm-fan va amaliy tadqiqotlar davlat grantlari, investitsiyalar orqali qo'llab-quvvatlanmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar,

yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak. Yurtimiz azaldan ilm-fan markazlaridan biri bo'lgan. Ona zaminimizdan ko'plab buyuk olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, tibbiyot, tilshunoslik, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, olamshumul ilmiy kashfiyotlari jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan.

Bu tafakkur maktabi hozirgi kunda ham davom etmoqda. Zamonaviy bilim va texnologiyalarni puxta egallagan, zarur laboratoriya va moddiy resurslar bilan ta'minlangan yosh olimlar, tadqiqotchilar keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ularning yangi ishlanma va loyihalari hayotga tatbiq etilmoqda.

Mamlakatimizning o'sib borayotgan ilmiy salohiyati va innovatsion iqtisodiyoti xalqaro hamjamiyatning e'tiborini jalb etmoqda. Shu bois VIII Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasi doirasida ilk bor Toshkent xalqaro innovatsiya forumi tashkil etildi. Anjumanda mamlakatimizda ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish, innovatsion loyihalarni hayotga tatbiq etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaralariga e'tibor qaratildi. Bu milliy iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va izchil yangilashga, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga hissa qo'shayotgani qayd etildi.

– Jahon bozorida raqobat kuchayib borayotgan bugungi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etayotir, – dedi “The Takeda Foundation” jamg'armasi katta boshqaruvchi direktori Norio Oto (Yaponiya). – O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish, resurslarni tejash, mahalliy xomashyodan foydalanish, mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, eksportni kengaytirishda innovatsion texnologiya va loyihalardan samarali foydalanilayotganiga guvoh bo'ldik. Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasini kuzatib, O'zbekiston g'oyat ulkan ilmiy-intellektual salohiyatga ega ekaniga ishonch hosil qildik. Mamlakatingiz bilan bu borada faol hamkorlik qilishdan manfaatdormiz.

O'zbekistonda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik bir necha mushtarak

maqsadlarni ko'zda tutadi. Xalqaro bozorda raqobat kuchayib borayotgani sababli xo'jalik yurituvchilar eng ilg'or texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqda. Bunday texnologiyalar mablag', xomashyo va boshqa resurslarni kam sarflagan holda yuqori sifatli va xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Texnologik yangiliklarni yaratayotgan olimlar ham yakuniy natija – ularning amalda o'zlashtirilishidan manfaatdor. Bunday oqilona yondashuv tufayli O'zbekistonning ilmiy salohiyati tobora yuksalib bormoqda. Mamlakatimizda yaratilgan intellektual mahsulotlarga bugun ham ichki, ham tashqi bozorda talab oshmoqda. Mazkur xalqaro forumda eng rivojlangan mamlakatlardan ko'plab mutaxassislar ishtirok etayotgani buning yorqin tasdig'idir.

– Ushbu forum O'zbekistonning innovatsiya sohasida erishayotgan ulkan yutuqlari bilan tanishish, o'zaro bilim va tajriba almashish, hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish imkonini berayotgani bilan ahamiyatlidir, – dedi Toshkentdagi Turin politexnika universiteti prorektori Andrea De Marki (Italiya). – Barcha sohalarga yangi texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar keng joriy etilayotgani mamlakatingiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. O'zbekiston olimlari, ayniqsa, intiluvchan va bilimli yoshlar yuksak salohiyati bilan hammaning havasini tortmoqda. Italiya bilan O'zbekiston hamkorligi innovatsion rivojlanish sohasida ham izchil rivojlanishiga ishonaman. 2008-2014-yillar davomida o'tkazilgan Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkalarida yurtimiz olimlari tomonidan yaratilgan 3500 dan ziyod innovatsion g'oya va ishlanmalar, texnologiyalar namoyish etildi, umumiy qiymati 86,8 milliard so'mlik 2300 dan ortiq shartnoma imzolandi. Natijada bir trillion so'mdan ziyod qiymatdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Bu ishlab chiqaruvchilarning olimlarimiz va ixtirochilarimiz tomonidan yaratilayotgan yangiliklarni xarid qilishdan g'oyat manfaatdor ekanini ko'rsatadi. Avval ular yangi texnologiyalarni asosan xorijdan sotib olgan bo'lsa, endi innovatsiya yarmarkalarida ishtirok etib, mamlakatimizda yaratilgan ishlanmalarni afzal ko'rmoqdalar.

Tadbirda bunday integratsiya samaralari xorijlik mutaxassislar tomonidan alohida e'tirof etildi.

– O'zbekiston iqtisodiyoti izchil va barqaror rivojlanmoqda, – dedi xalqaro ekspert

Bernardo Jeffrey Morante (Singapur). – Ilm-fan va ishlab chiqarishning o‘zaro integratsiyasini kengaytirish, ular o‘rtasida amaliy hamkorlikni kuchaytirish borasidagi ishlar bunda muhim o‘rin tutmoqda. Yurtingiz ilm-fani yutuqlari, yoshlarning novatorlik qobiliyati diqqatga sazovor.

Anjumanning xorijlik ishtirokchilari mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga keng jalb etish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ijodiy tafakkur va yaratuvchilik salohiyatini rivojlantirish borasidagi ishlarni yuksak baholadi. O‘zbekistonda ta’lim, fan va amaliyot hamkorligini kengaytirish, innovatsion g‘oyalarni hayotga keng tatbiq etishga qaratilayotgan doimiy e’tibor jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qilayotgani qayd etildi.

Xalqaro forumning dastlabki kunida jahon innovatsiya tizimlari, bu borada taraqqiy etgan davlatlar tajribasi, mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari, innovatsion iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish kabi masalalar muhokama etildi.

Forum o‘z ishini «Innovatsion faollikni va tadbirkorlikni rivojlantirish» hamda «Yoshlar va innovatsiyalar» mavzulariga bag‘ishlangan sho‘ba majlislarida davom ettiradi. Unda ilmiy va texnologik parklarni mustahkamlash, yoshlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, korxonalar boshqaruvida innovatsion yondashuvlar, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi kabi masalalar yuzasidan fikr almashiladi.



“O‘zekspomarkaz”da II Respublika innovatsiya g‘oyalari, texnologiyalari va loyihalari yarmarkasi yakunlandi. Tadbir O‘zbekiston iqtisodiyoti real sektori va ilm-fani o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, uni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga bag‘ishlandi. Yarmarkada o‘zbekistonlik olimlar va yangi texnika ixtirochilarining innovatsiya faoliyati natijalarini joriy etish bo‘yicha umumiy qiymati 13 milliard so‘mdan ortiq qariyb 300 shartnoma hamda ahdlashuv protokollari imzolandi.

Prezident Islom Karimov tomonidan iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida barcha jabhalarda ishlab chiqarishni eng zamonaviy texnologiyalar va uslublar asosida jadallashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Ularning ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan mazkur yarmarkada vazirliklar, uyushmalar, kompaniyalar, bank-moliya tuzilmalari, davlat korxonalari, xususiy va qo‘shma korxonalar, Fanlar akademiyasi institutlari, oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-texnologik va tajriba-konstruktorlik tashkilotlari ishtirok etdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir, ilmtalab va yuksak texnologiyalarga assoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishning o‘rni katta. Shu bois butun dunyoda yangi va ilg‘or texnologiyalarning bozor qiymati oshmoqda. O‘zbekiston bu borada katta salohiyatga ega. Davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib

bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g'oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari ajratilmoqda. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ro'yobga chiqarilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar jahon ilm-fani uchun ham katta ahamiyatga egadir. Olimlar o'z ishlarini, birinchi navbatda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar oldida turgan aniq vazifalarni hal etishga yo'naltirayotir. Bunda yangi, istiqbolli ishlanmalarni hayotga tatbiq etish ishlab chiqarish va ilm-fanni rivojlantirishga yordam beradi. Ya'ni, intellektual mahsulotlarni sinovdan o'tkazish, yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarish bazasi hamda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga yo'naltiriladigan qo'shimcha mablag'larga ega bo'lish imkoniyati kengayadi. Ilm-fan va ishlab chiqarish jamiyatimizning barcha jabhalarida islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining o'zaro bog'liq hamda zarur bo'g'inlarigi aylanadi.

Ikki yildan buyon o'tkazib kelinayotgan respublika innovatsiyalar yarmarkasi buni yana bir bor tasdiqladi va u iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni jadallashtirishga yordam berayotgan yangi texnologiya hisoblanadi. Ushbu texnologiya sinovdan o'tdi va o'z samarasini bermoqda. Masalan, o'tgan yili tuzilgan shartnomalarning katta qismi amalga oshirildi – mamlakatimiz korxonalarida yangi texnologiyalarni o'zlashtirish hisobidan eksportbop va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish ko'paydi, ularning turlari ham kengaydi. Bundan tashqari, yarmarkada ishtirok etgan fermer va tadbirkorlarning aksariyati bu yerda xarid qilingan texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarishni, asosan mahalliy xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlaydigan ishlab chiqarishlarni tashkil etdi. Ular joriy yilda yanada ko'proq ana shunday shartnomalar tuzdi. Bularning barchasi, birinchi navbatda, qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, hududiy mahalliyashtirish dasturlarini kengaytirish va pirovard natijada, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga yordam beradi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirishga bunday innovatsion yondashuv jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida va bozorda raqobat kuchayib borayotgan bugungi kunda yagona hamda to'g'ri yo'ldir. Ushbu yondashuv mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi va bu milliy iqtisodiyotimizni

mustahkamlash, jahon inqirozining iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini yumshatish bilan bir qatorda, uning istiqboldagi rivoji uchun poydevor yaratish imkonini beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, yarmarkada namoyish etilgan 600 dan ortiq yangi loyiha va ishlanmalarning 80 foizi keyingi 2-3 yilda o'zbekistonlik olimlar tomonidan yaratilgan. Ularni joriy etish yangi materiallar, turli yuqori samarali mashinalar, preparatlar, jahon standartlariga mos va ko'p hollarda, ulardan ustunligi bilan ajralib turadigan ilmtalab boshqa mahsulotlar yaratishga yordam beradi. Bu loyiha va ishlanmalar sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, axborot texnologiyalaridan foydalanish, ilm-fan va ta'lim jabhalarida o'zlashtirish uchun mo'ljallangan.

Yarmarkada O'zbekiston Fanlar akademiyasining Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti mutaxassisleri tomonidan yaratilgan va tarkibida oqsil, yog' va foydali mikroelementlar ko'p bo'lgan «Genetik-1» soya navi urug'iga buyurtma ko'p bo'ldi. Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Toshkent viloyati fermerlari bilan uni sotib olish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Soyani yetishtirish fermer xo'jaliklarida ushbu o'simlikdan turli xil xaridorgir mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda, tuproqni azot bilan boyitish hisobidan uning unumdorligini oshirish imkonini beradi. Negaki, soya urug'ining unib chiqishida uning tarkibidagi kimyoviy birikmalardan azot ajralib chiqadi. Yana shunisi muhimki, soya o'simligi deyarli uch oyda pishib yetilishi bois, uni boshhoqli don ekinlaridan bo'shagan maydonlarga ekish mumkin.

Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida yaratilgan ko'plab ishlanmalar esa import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish borasidagi vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan. Misol uchun, yuqori samaraga ega «Polidef» defolianti, urug'larga ekishdan oldin ishlov berish uchun mo'ljallangan ekologik xavfsiz «O'zXitAN» urug'dorilagich, ushbu preparatlarni

qo'llagan holda urug'larni kapsulalash texnologiyasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda katta qiziqish uyg'otdi. Yana shunisi e'tiborliki, ularning barchasi mahalliy xomashyoga asoslangan bo'lib, ishlab chiqarish uchun katta sarf-xarajat talab qilmaydi. Institut olimlari o'z ishlanmalarini respublikamiz korxonalarida yanada keng o'zlashtirish uchun yarmarkada yangi hamkorlar topdi.

Tadbirda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi «Suxayl Bog'i hilol» fermer xo'jaligi Toshkent davlat agrar universiteti bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun universal quritish moslamasini sotib olish uchun qiymati 20 million so'mlik shartnoma imzoladi. Quyosh nurlari yordamida va sun'iy quritish uslublariga asoslangan ushbu moslama energiyani kam sarflashi, unumdorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi va bu bog'dorchilik xo'jaligida yetishtirilgan hosildan quruq mevalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqilgan energiya tejaydigan texnologiyalar endi «O'zmetkombinat» aksiyadorlik-ishlab chiqarish birlashmasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Nasos stansiyalari boshqarmasi, Qarshi yog'-moy kombinatida keng qo'llaniladi.

- Innovatsiyalar yarmarkasi ishlab chiqaruvchilar va yangi texnologiyalar ixtirochilari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini berdi, – deydi Toshkent davlat texnika universiteti kafedrası mudiri Orifjon Hoshimov. – Ushbu yarmarkalarning o'tkazilishi o'zbek ilm-fani salohiyatini namoyish etibgina qolmay, balki iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlaridagi ishlab chiqarishga oid muayyan vazifalarni hal etishga ko'maklashadi. Yarmarka yakuni bo'yicha «O'zbekistonni innovatsion rivojlantirish: muammolar va istiqbollar» mavzuida o'tkazilgan davra suhbatida ham shu haqda so'z yuritildi. Unda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Xalqaro innovatsiyalar reytingida besh pog'ona yuqoriladi

“Xalqaro innovatsiyalar ko'rsatkichi 2014” ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekiston innovatsion rivojlanish bo'yicha xalqaro reytingda o'z ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan

yilgidan besh pog‘ona yuqoriladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi xabar bermoqda.



2-rasm. Businessdataprocessing.com

Ushbu reyting Kornel universiteti, INSEAD biznes maktabi va Xalqaro intellektual mulk tashkiloti tomonidan 2007-yildan buyon tuzib kelinadi.

“Xalqaro innovatsiyalar ko‘rsatkichi”ni tuzishda mavjud manbalar, innovatsiyalar olib borish uchun sharoitlar hamda bu borada qo‘lga kiritilgan amaliy natijalar hisobga olinadi. Jami 143 davlatdan iborat reytingda O‘zbekiston 128-o‘rinni egalladi. Shveysariya, Buyuk Britaniya va Shvetsiya yuqori uchlikka kirgan bo‘lsa, eng so‘nggi o‘rinlarni Yaman, Togo va Sudan band etdi.

>>Iqtisodiyot >>Innovatsiyalar – zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish omili

Toshkentda 13 aprel kuni Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar IV Respublika yarmarkasi boshlandi.

O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi istiqlolning dastlabki kunlaridan Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan amalga oshirib kelinayotgan puxta o'ylangan keng ko'lamli islohotlar samarasidir. Barcha tarmoqlarni muvozanatli rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir import o'rnini bosadigan hamda eksportbop mahsulotlar hajmini muntazam oshirish imkonini bermoqda. Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi hayot sinovidan o'tgan, zikr etilgan ijobiy jarayonni rag'batlantiruvchi va jadallashtiruvchi mexanizmga aylandi. «O'zekspomarkaz»da boshlangan Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar IV Respublika yarmarkasi buning amaldagi ifodasidir.

An'anaga aylangan ushbu innovatsiyalar yarmarkasi Prezidentimiz Islom Karimovning 2008 yil 15 iyulda qabul qilingan «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash doirasida o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbirda o'tgan yillardagi kabi vazirliklar, idoralar, banklar, milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi institutlari, oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlar, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari vakillari ishtirok etmoqda.

Yarmarkaning ochilishida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Sh.Solihov mamlakatimizda ilmiy, jumladan innovatsion faoliyat davlatimiz rahbarining doimiy qo'llab-quvvatlashi samarasida izchil rivojlanib borayotganini ta'kidladi. Bu borada davlat grantlari, shuningdek, qo'shimcha

investitsiyalarni jalb qilish tizimi tashkil etilib, undan samarali foydalanilmoqda. Bularning barchasi fundamental ilm-fan va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy jarayonni shakllantirish imkonini bermoqda.

Inqirozga qarshi choralar dasturini hayotga tatbiq etish davomida iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, ularni rivojlantirish va chuqurlashtirish mamlakatimizda samarali natijalarga erishish imkonini berayotir. 2009 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o'sishi 8,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 8,5 foizga yetdi. Bunday sur'atlar joriy yilda ham saqlanmoqda. Xalqaro moliya institutlarining fikricha, bu bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan bo'lib, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan hamda butun dunyoda islohotlarning «o'zbek modeli» sifatida keng e'tirof etilgan taraqqiyot yo'lining oqilona va to'g'ri ekanligining yorqin tasdig'idir. Shunisi e'tiborliki, mamlakatimiz bu yutuqlarga global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va undan chiqish sharoitida erishmoqda. Holbuki, dunyoning aksariyat davlatlarida bu jarayon qiyinchilik bilan kechmoqda.

O'zbekistonda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik bir necha mushtarak maqsadlarni ko'zda tutadi. Bozorda raqobat kuchayib borayotgani sababli xo'jalik yurituvchilar eng ilg'or texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqda. Bunday texnologiyalarning joriy etilishi esa mablag', xomashyo va boshqa resurslarni kam sarflagan holda yuqori sifatli va xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Texnologik yangiliklarni yaratayotgan olimlar ham yakuniy natija – ularning amalda o'zlashtirilishidan manfaatdor.

O'zbekistonning ilmiy salohiyati bunday oqilona yondashuv tufayli tobora yuksalib bormoqda, mamlakatimiz intellektual mahsulotiga bugun ham ichki, ham tashqi bozorda talab katta. Masalan, avvalgi uch yarmarka davomida umumiy qiymati 41 milliard so'mlik ilmiy va texnik ishlanmalarni joriy etish to'g'risida jami 1196 shartnoma imzolangan edi. Ularning soni yil sayin ko'payib bormoqda: birinchi yarmarkada olimlar va xo'jalik yurituvchilar 292 shartnoma imzolagan bo'lsa, o'tgan yilgi yarmarkada 456 shartnoma tuzildi. Ularning ko'pchiligi amalga oshirildi va bu

milliy iqtisodiyotimiz yetakchi tarmoqlarining o'nlab yirik korxonalarini modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shdi.



3-rasm.

Bu galgi to'rtinchi yarmarkada olti yuzga yaqin istiqbolli texnologiya, loyiha va innovatsion g'oyalar namoyish etilmoqda. Ulardan 471tasi yangi ishlanmalar bo'lib, 91tasi esa avvalgi yarmarkalarda namoyish etilgan, hozircha joriy qilinmagan, lekin katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega ishlanmalardir. Yarmarkada namoyish etilayotgan innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarning 195 tasi sanoatni, 110 tasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, 87 tasi sog'liqni saqlash va farmatsevtika tarmog'i, 51 tasi axborot texnologiyalari, 28 tasi ilm-fan va ta'lim sohasiga oiddir.

«O'zekspomarkaz» ko'rgazma pavilyonlarida namoyish etilayotgan yuqori samara berishi kutilayotgan ishlanmalardan biri O'zbekiston Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo institutiga tegishlidir. Bu «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi va «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi rezervuarlarida neft mahsulotlari va gaz kondensatini saqlashda ularning bug'lanishi natijasida yengil uglevodorodlar isrofining oldini oladigan suzib yuruvchi pontonlardir. 2000 kub metr sig'imga ega rezervuarda bitta pontonni qo'llashdan keladigan iqtisodiy samara,


hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga 400 million so'mni tashkil qiladi. Qarshi neft bazasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi va «Sho'rtanneftgaz» korxonasida o'tkazilgan tajriba-sanoat sinovi shuni ko'rsatdi.

O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot institutining yog' ishlab chiqarish bo'yicha moslamalarda qo'llaniladigan oldindan gidrologik tozalash katalizatorini ishlab chiqarishni tashkil etish uchun mo'ljallangan ishlanmasi ham yarmarka qatnashchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Shunisi diqqatga sazovorki, texnologiya mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan foydalanishga asoslangan. Ayni paytda asosan chetdan keltirilayotgan ushbu mahsulotning tatbiq etilishi mamlakatimiz neftni qayta ishlash va kimyo tarmoqlari ehtiyojini to'liq ta'minlash bilan bir qatorda uni eksport qilish imkonini ham beradi.

Mutaxassislarning fikricha, «Paxtasanoat ilmiy markazi» ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan taklif etilayotgan paxtaga birlamchi ishlov berish texnika va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha kompleks dastur katta istiqbolga ega. Mazkur texnik qurilmalar tizimi paxtani aralashmalardan kam chiqindi chiqargan holda to'la tozalaydi. Bundan tashqari, tola mikroeynerini o'lchash uchun uning tarkibiga kiradigan akustik pribor import o'rnini bosadi. Xorijda ishlab chiqarilgan shunday moslama bilan taqqoslanganda u sakkiz baravar ixcham bo'lib, energiyani qariyb 20 baravar kam sarflaydi.

Ta'kidlash lozimki, joriy yilda oliy o'quv yurtlari tomonidan yarmarkaga taqdim etilgan yangi ishlanmalar soni ancha ko'paygan. Ularning aksariyati bevosita talabalar yoki ularning ishtirokida yaratilgan. Masalan, Toshkent kimyo-texnologiya institutida yaratilgan tez tozalanadigan paxta yog'ini va tarkibida gossipol kam shrot olish texnologiyasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet olimlari va talabalari jamoasi tomonidan «Olmalik kon-metallurgiya kombinati» ochiq aksiyadorlik jamiyati va «Kompozit» korxonasi mutaxassislari bilan hamkorlikda yaratilgan mis ishlab chiqarish bo'yicha chiqindisiz, energiya va resurs tejaydigan, ekologik toza texnologiya, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari xo'jalik yurituvchilarga joriy qilish uchun taklif etayotgan katta amaliy ahamiyatga ega boshqa ko'plab loyihalar shular

jumlasidandir.



4-rasm.

Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugun iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Bu sektor tez o’zgarib turgan talabni qondirish, yangi ish o’rinlarini tashkil etish va aholi daromadining ko’payishini ta’minlashda muhim o’rin tutadi. 2010 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ushbu sektorning ulushi 52,5 foizni tashkil qildi. Bu ko’rsatkich davlatimiz tomonidan berilayotgan katta yordam, ko’plab imtiyoz va preferensiyalar hisobidan muttasil o’sib bormoqda. Joriy yilning mamlakatimizda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili, deb e’lon qilinishi ham bu boradagi ishlar ko’lamini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Yarmarkada ushbu sektor xo’jalik yurituvchilari uchun maxsus bo’lim tashkil etilgan bo’lib, uni shakllantirishda akademik va ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o’quv yurtlari, konstruktorlik muassasalari va ixtirochilar ishtirok etdi. Bu yerda namoyish etilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish uchun ixcham uskunalar, turli tarmoqlar uchun mini-texnologiyalar, muqobil manbalardan energiya olish qurilmalari va boshqa ko’plab yangiliklar yarmarkada qatnashayotgan kichik biznes vakillarida katta qiziqish uyg’otmoqda.

– Men yarmarkaga o’simlik yog’i ishlab chiqaradigan mini-zavodimiz uchun zamonaviy uskunalar xarid qilish maqsadida keldim, – deydi Surxondaryo viloyati

Muzrabot tumanidagi xususiy korxona rahbari Rajab Hayitaliyev. – Bu yerda namoyish qilinayotgan texnologiyalar bir-biridan qolishmaydi. Toshkent davlat agrar universitetida yaratilgan qurilma menda, ayniqsa, katta qiziqish uyg‘otdi. U yog‘ olish jarayonini ancha tezlashtiradi, foydalanish uchun qulay va ixcham. Shu sababli ushbu qurilmani sotib olish to‘g‘risida shartnoma tuzdik. Davlatimiz rahbaridan biz, tadbirkorlar, fermerlarga innovatsiyalar yarmarkasida nafaqat mamlakatimizda yaratilgan texnologiyalar bilan tanishish, balki ularni o‘z ishimizni rivojlantirish uchun xarid qilish imkonini yaratib bergani uchun minnatdormiz.

Yarmarkaning birinchi kunida yangi texnologiyalarni sotib olish va joriy qilish to‘g‘risida yuzga yaqin shartnoma imzolandi. Masalan, «O‘zmetkombinat» ochiq aksiyadorlik birlashmasi va Toshkent davlat texnika universiteti o‘rtasida jami qiymati 115 million so‘mlik to‘rtta ishlanmani o‘zlashtirish to‘g‘risida shartnomalar tuzildi.

– Ushbu ishlanmalarning joriy etilishi biz ishlab chiqarayotgan prokat mahsulotlar va xalq iste‘mol tovarlari sifatini yanada oshirish imkonini beradi, – deydi «O‘zmetkombinat» ochiq aksiyadorlik birlashmasining innovatsiyalar va investitsiyalar bo‘limi boshlig‘i Hasan Toshmatov. – Bundan tashqari, bu texnologiyalar resurslarni tejash, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va, eng muhimi, ekologik toza ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xizmat qiladi. Har yili o‘tkazib kelinayotgan innovatsion yarmarkalarda ishtirok etish orqali korxonamizda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan yigirmadan ortiq ana shunday texnologiyani joriy qildik. Bundan tashqari, talab va ehtiyojlarimizni inobatga olgan holda o‘z yangiliklarini yaratayotgan ixtirochilar bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ydik.

Yarmarkada shartnomalar tuzish tartibini yengillashtirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu yerda mamlakatimizning yetakchi banklari, sug‘urta kompaniyalari, Davlat patent idorasi, Iqtisodiyot vazirligining Texnologiyalar transferi agentligi mutaxassislari xizmat ko‘rsatmoqda. Ular shartnomalarni rasmiylashtirish, shuningdek, yangiliklarni o‘zlashtirish uchun imtiyozli kreditlar

olish bo'yicha barcha ishtirokchilarga zarur maslahatlarni bermoqda.

Darhaqiqat, Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi oldiga qo'yilgan barcha maqsadlarga erishilmoqda. Yarmarkaning salmoqli natijalari milliy iqtisodiyotimizning barcha jabhalarini modernizatsiya qilishda, uni mamlakatimiz olimlari va ixtirochilari tomonidan yaratilgan eng ilg'or texnologiyalarni joriy etish hisobidan jadal rivojlantirishda o'z ifodasini topayotir. Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya va kooperatsiya aloqalari kengaymoqda. To'rtinchi innovatsiya yarmarkasi ham buni yana bir bor tasdiqlaydi. Olimlar va xo'jalik yurituvchilarning o'zaro hamkorligi bo'yicha yaratilgan mazkur samarali mexanizm O'zbekistonda zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va pirovard natijada, davlatimiz rahbari tomonidan yaqin vaqt ichida dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallash borasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Toshkentda VIII Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasi ochildi



5-rasm.

O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari yildan-yilga kengayib bormoqda. Zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish, yangi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlar yaratilishi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ichki hamda tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tashkil etilgan yarmarka ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilayotir. Unda vazirliklar, idoralar, banklar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermer xo‘jaliklari, Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o‘quv yurtlari vakillari faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Solihov va boshqalar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ilmiy va innovatsiya faoliyatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti, ilmiy-tadqiqot ishlari, intellektual mulkni yanada rivojlantirish va himoya qilish, yangi ixtirolarni amaliyotga joriy etish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslarni tejash, ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganini ta’kidadi. Davlatimiz rahbarining 2008-yil 15-iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va shu yil 4-martdagi 2015-2019-yillarda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risidagi farmoni bu borada muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Mamlakatimizda innovatsiya faoliyatining rag‘batlantirilayotgani avval o‘tkazilgan yarmarkalar natijalarida ham yaqqol ko‘rinadi. Innovatsiya yarmarkalarida mamlakatimiz ilm-fani salohiyati yuqoriligi va milliy ishlanmalar xorijnikidan aslo qolishmasligi, hatto ko‘plab ko‘rsatkichlar bo‘yicha ulardan ustunligi o‘z ifodasini topmoqda.

VIII Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasida sanoat, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari va ilm-fan kabi yo‘nalishlarda qariyb besh yuzta innovatsiya loyihasi namoyish etilmoqda. Bular mamlakatimiz olimlari, mutaxassislari va ixtirochilarining mutlaqo yangi ishlanmalaridir. Energetika va avtomatika institutining ilmiy xodimlari energiya tejash va muqobil energetika bo‘yicha innovatsiya ishlanmalarini taqdim etgan. Masalan, bir guruh olimlar

tomonidan charxpalak yoki gidravlika turbinasi yordamida ishlaydigan mikrogidroelektr stansiya yaratildi. U olis aholi punktlari, yaylovlar, gidrometeostansiyalar va boshqa joylarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

– MikroGES ekologik jihatdan tabiiy landshaft va atrof-muhit tozaligini saqlaydi, – deydi loyiha mualliflaridan biri, kichik ilmiy xodim Dilshod Qodirov. – Stansiyaning dastlabki tajriba namunasi O'rta Chirchiq tumanidagi fermer xo'jaliklaridan birida o'rnatildi va energiya ishlab chiqishda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Bu yilgi yarmarkada bir qancha yangi yo'nalishlar tashkil etildi. Xususan, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlari tomonidan yaratilgan ilg'or texnologiyalarga mamlakatimiz va chet el ishlab chiqaruvchilarining e'tibori hamda investitsiyalarini jalb qilish maqsadida «Yuqori texnologiyalar» (Hi-Tech) yo'nalishi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerda hujayra texnologiyalari, farmatsevtika, AKT bo'yicha innovatsiya ishlanmalari va boshqa yangiliklar namoyish etilmoqda.

So'nggi yillarda yarmarka tashkilotchilari muqobil energiya manbalari namoyishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yana bir yangi – «Energiya va resurs tejaydigan texnologiyalar» bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limda energetika resurslarini tejash, qayta tiklanadigan energiya, energiya iqtisod qiladigan bino va inshootlardan foydalanishning samarali uslublari, energetika auditori bo'yicha ishlanmalar taqdim etilgan.

Yarmarkada namoyish etilayotgan nanotexnologiyalarni kelajak texnologiyalari, deb bimalol atash mumkin. O'zbekiston olimlari ilm-fanning ushbu yangi sohasida faol tadqiqotlar olib borayotir va ularning natijalari ham yarmarkada taqdim etilgan.

Jumladan, Farg'ona politexnika instituti ilmiy bazasida xorijiy investitsiyani jalb etgan holda tashkil qilingan «Maidaizol-Invest» mas'uliyati cheklangan jamiyati nanozarrachalardan energiya tejaydigan himoya qoplamasini ishlab chiqdi. Institut ilmiy bo'limi rahbari, professor Sirojiddin Ergashevning aytishicha, bu modda oddiy bo'yoqqa o'xshash bo'lib, turli texnologik qurilmalarga surtiladi. Nanoqoplama besh daqiqa ichida qotadi va issiqlik energiyasini ishonchli saqlaydi. Qalinligi bir millimetr bo'lgan qatlam 650 gradus issiqlikka bardosh bera oladi. Eski issiqlik izolyatorlari – penoplast va

shishali paxta besh santimetr qalinlikda o‘ralgan taqdirdagina shunday natija berishi mumkin. Qolaversa, farg‘onalik olimlar yaratgan innovatsiya boshqa izolyatorlarga nisbatan 2-3 baravar arzon.

Ta’kidlash joizki, navbatdagi yarmarkada «Yoshlarning innovatsiya g‘oyalari» respublika ko‘rik tanlovi g‘oliblarining ishlanmalari keng namoyish etilmoqda. Ushbu ishlanmalarni saralashda ularning amaliyotga tatbiq etishga tayyorligi, energiya va material tejamkorligi, mahalliy xomashyodan foydalanish, bozorga yangi mahsulot chiqarish imkoniyati kabi omillarga alohida e’tibor berildi.

Yarmarkaning ochiq maydonida innovatsiyalarning haqiqiy musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Andijonlik yosh ixtirochi Oybek Umarov va Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining Bekzod Yunusov rahbarligidagi bitiruvchilari o‘zlari ixtiro qilgan elektromobillarni namoyish etdi.

– Biz yaratgan elektromobil turizm sohasi uchun juda qo‘l keladi, – deydi B.Yunusov. – Batareyaning to‘liq quvvati 80 kilometrgacha yo‘lni bosib o‘tish uchun bimalol yetadi. Mamlakatimizda quyoshli kunlarning ko‘pligi avtomobillarga quvvat berish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Hozir patent olish uchun hujjat tayyorlayapmiz va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun quyosh energiyasi yordamida harakatlanadigan elektromobillar va mikroavtobuslar yaratishni rejalashtirmoqdamiz.

Yarmarka doirasida, an’anaga ko‘ra, mamlakatimiz sanoat korxonalari ishlab chiqarishga innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni tatbiq etish samaradorligi to‘g‘risida taqdimotlar o‘tkazmoqda. Yarmarkaning dastlabki kunida korxonalar va loyihachilar o‘rtasida mahsulot va texnologiyalarni xarid qilish yoki joriy etish bo‘yicha qiymati 3 milliard so‘mlikdan ortiq 140 dan ziyod shartnoma imzolandi.

2-BOB O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollar

2.1 Innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O'zbekistonning innovatsion faoliyati davlat tomonidan samarali va izchil amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati, rivojlangan xorij tajribasi hamda investitsion muhitni yanada jozibadorligini oshirish mexanizmlariga bog'liq bo'lib, keng ko'lamda o'rganilishi zarur dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Sanoat vakillari, tadbirkorlar, tadqiqotchi va olimlar mazkur muammoning echimiga milliy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda rivojlangan xorij tajribasini qo'llash va ular bilan o'zaro hamkorlik tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali erishiladi, degan fikrda. Chunki jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqobat muhitini kuchayib borishi, jahon bozorida mahsulotlar hayotiylik davrini keskin qisqarishiga, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlarini tez o'zgarishiga olib keldi. Natijada har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda. Bu esa, mamlakatning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va uni samarali boshqarishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi sub'ektlarning innovatsion faoliyati birinchidan, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish, ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ekologik jihatdan barcha me'yorlarga to'la javob beradigan hamda ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarini pasaytirishda ularning iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi.

XX asrning o'rtalarida keng ko'lamda rivoj topgan ilmiy-texnik inqilob mulkdorlar, tadbirkorlar hamda iqtisodchilar e'tiborini ishlab chiqarishda ro'y berayotgan turli texnologik o'zgarishlarga tortdi. Shunday o'zgarishlarni ilmiy sohada "innovatsiya" atamasi bilan atay boshlandi. Natijada hozirgi davrga kelib "innovatsiya" tushunchasi biron-bir turdagi faoliyatni tarkibiy jihatdan yangilash, tubdan o'zgartirish, xo'jalik

faoliyati sub'ektlari tomonidan ilmiy-texnik, tashkiliy, boshqaruv va boshqa yangiliklarning yaratilishi, tarqatilishi hamda joriy etilishini ifoda etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizastiyalash borasidagi sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirish bilan tavsiflanadi. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligi bevosita fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, ixtiro hamda loyihalar, ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz korxonalarida innovatsion jarayonlarni yanada rivojlantirishga taalluqli muammolarni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion faoliyatni samaradorligi birinchi navbatda mamlakatda innovatsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunlar doirasida yagona huquqiy normalar tizimini shakllantiradigan institutsional asoslarni ishlab chiqish darajasiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz innovatsion faoliyatni rivojlantirishda "Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti" (IHRT) tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar va uslubiy tavsiyalarni chuqur o'rganish zarur. Bularga 1995 yilda IHRT tomonidan qabul qilingan "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy sohada band mehnat resurslarini aniqlash" (Manual On The Measurement Of Human Resources Devoted To S&T - Canberra Manual), 1997 yilda qabul qilingan "Milliy innovatsiya tizimi" (National Innovation System), 2002 yildagi "Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha hisobot standartlari" (Proposed Standard Practice for Surveys of Research and Experimental Development), "Milliy innovatsiya tizimini o'zgarishi" (Dynamising National Innovation Systems), "Fraskati qo'llanmasi" (The Frascati Manual) kabi xalqaro standartlar va uslubiy tavsiyalarni ta'kidlashimiz mumkin¹.

Iqtisodiyotni modernizastiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati birinchidan, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, innovatsion loyihalar, g'oyalar va ixtirolarni moliyalash tizimini rivojlanganlik jihatlariga bog'liq bo'ladi. Bu innovatsion jarayonlarning institutsional asoslarini tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotni globallashuvi va ishlab chiqarishni modernizastiyalash sharoitida davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish masalalari hisoblanadi. Natijada davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni modernizastiyalash, texnika va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, diversifikatsiya qilish masalalariga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 436-sonli, 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 916-sonli Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 noyabrdagi "Ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 241-sonli, 2008 yil 15 oktyabrdagi "Texnologiyalar transferi Agentligi" Davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 228-sonli Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy iqtisodiyotimiz korxonalarining rivojlanishi natijasida keyingi yillarda eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xom ashyo etkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, 2011 yilda sanoat mahsulotlari umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. 2011 yilda eksport mahsulotlari hajmi oldingi yilga nisbatan 15,4 foizga oshib, qiymat ko'rinishda 15 mlrd. AQSh dollaridan ko'proqni tashkil etdi². Bunga sabab iqtisodiyotni etakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va mazkur sohalarni diversifikatsiya qilish hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zaruratini kun tartibiga yanada o'tkir qilib qo'yayotganligi bois ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bor kuch-imkoniyati va resurslaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratmoqda. Buning uchun iqtisodiyotning muhim

tarmoqlarini yanada rivojlantirish, yangi o'zak tarmoqlarni barpo etish, tarkibiy o'zgarishlar, samarali va erkin iqtisodiyotni shakllantirish zarur. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotni raqobatdoshligini oshirish uchun innovatsion mahsulotlar hisobiga korxona va tarmoqlar faoliyat sohalari kengaytirish maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ta'kidlangan maqsadga erishishda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash, mahsulot va xizmat turlarini yangilash, ko'paytirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi jahon iqtisodiyotining tobora o'zaro integratsiyalashuvi sanoat korxonalarining raqobat muhitiga moslashuvchan jihatlari kengroq o'rganish, har tomonlama rivojlanayotgan bozor munosabatlari talablariga mos holda ishlab chiqarishni tashkil etish va samarali boshqarishni zaruratga aylantirmoqda. Tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari milliy iqtisodiyotimizning bir bo'g'ini sifatida respublika iqtisodiyotiga, xalqimizning farovon turmush kechirishiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Xorij mamlakatlarida raqobatdosh va arzon ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni mamlakatimizga kirib kelishi mutaxassis va etakchi olimlardan respublikamizda mavjud bo'lgan sanoat korxonalarini rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga doir ilmiy asoslangan qirralarini ochib berishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shularni hisobga olib mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratgan holda, innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadvalda keltirilgandek turkumlashimiz mumkin. Chunki mazkur omillarni har tomonlama tadqiq etish korxonalarida raqobatdosh yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali yo'llarini ilmiy asoslash hisobiga ish yuritish faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

2.1 Innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar	Innovatsion faoliyatga to'sqinlikqiluvchi omillar
Siyosiy	Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati, erkin iqtisodiyotni shakllanishi, milliy innovatsion tizimni rivojlanishi	Tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to'siqlar, xususiy mulkchilikni davlat tomonidan kafolatlanish tizimini to'la shakllanmaganligi, siyosiy beqarorlik
Huquqiy	Intellectual mulk ob'ektlarini himoya qilish tizimi, mualliflik huquqlarini himoya qilinganlik darajasi	Patent va listenziya berish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi kamchiliklar
Iqtisodiy	Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlarni rag'batlantirish	Innovatsion bozorlarda raqobatning keskinlashuvi, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda iqtisodiy tavakkalchilik va xavfning yuqoriligi
Texnologik	Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-texnik yutuqlarga erishish, yukori texnologiyani joriy kilish	Moddiy, ilmiy-texnik va zamonaviy laboratoriya jihozlarini etishmasligi, korxonalarning asosiy vositalarini ma'naviy eskirganligi

Moliyaviy	Fundamental, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar yoki eksperimental ishlarni moliyalashtirish tizimining samarasi	Yirik investitsion loyihalarni amalga oshirilishining kechikishi, innovatsion infratuzilmani shakllantirish jarayonini sustligi
Tashkiliy	Mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnik salohiyatini oshirish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish	Fan, texnika, iqtisodiyot, biznes va boshqaruvni birlashtiruvchi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarini sustligi, ilmtalab tarmoqlar uchun mutaxassislarni tezkor tayyorlashni ta'minlovchi yangi dasturlarni etishmasligi
Boshqaruv	Innovatsion, motivatsion, iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy qismlarni o'z ichiga olgan milliy, hududiy hamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish	Innovatsion menejment ixtisosligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash va ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishdagi muammolar
Ijtimoiy	Ta'lim muassasasi moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish talablari	Jamiyatda ilg'or g'oyalarni shakllantirish hamda fan va texnikaning rivojlanishini zamon talablariga

	va jamiyatning rivojlanish darajasiga javob beruvchi, sifatli kadrlarni tayyorlash	uyg'unlashtiradigan vositalar hamda globalizastiya jarayonlariga moslashtirishdagi muammolar
--	--	--

Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi va rivojlanishiga sharoit yaratuvchi omillarni o'rganish mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan innovatsion siyosatni olib borish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan samarali strategik maqsadlarni belgilab olishga yordam beradi.

Mamlakatimizda biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyati rivojlanish darajasini yuksaltirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish, modernizastiyalash, texnik va texnologik yangilashning strategik maqsadlariga mos ravishda yaqin yillar ichida zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Hozirda rivojlangan mamlakatlar sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirishda investistiyalarni strategik boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada muayyan tarmoqlarda sanoat ishlab chiqarishining samarali amalga oshirilishi hisobiga innovatsion faollikni yanada kuchayishi kuzatilmoqda. Chunki sanoat korxonalarida innovatsion mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengayishi o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishlarini joriy qilish, ish o'rinlarni tashkil etish hamda tashqi aloqalarning kengayishiga sharoit yaratadi³. Buni sanoati o'sib borayotgan xorij mamlakatlari tajribasida ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, yalpi ichki mahsulotida (YaIM) sanoat ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar sifatida Qatar, Bahreyn, Xitoy va Indoneziya davlatlarini ta'kidlashimiz mumkin. Misol uchun, 2011 yilda YaIMda sanoat ulushi Qatarda 74,9 foiz, Bahreynida 66,2 foiz, Xitoyda 48,6 foiz va Indoneziyada 48,1 foizni tashkil etgan [4]. O'zbekistonda esa sanoat mahsulotining YaIMdagi ulushi 2011 yilda 24,1 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 6,6 foizga ortgan.

O'zlashtirilgan investistiyalar miqdori 2011 yilda YaIMga nisbatan Xitoyda 40,5 foiz, Hindistonda 39,0 foiz, Ruminiyada 33,3 foiz, Qatarda 32,1 foiz va Belarusda 31,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 23,9 foizga teng bo'ldi.

Mamlakatimizda 2011 yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 10,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 11,2 foizga ortdi. Milliy iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning hajmi 2,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Buning natijasida farmastevtika va mebelsozlikning sanoatdagi ulushi 18,0 foiz, oziq-ovqat sanoati 13,1 foiz, mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati 12,2 foiz, qurilish materiallari sanoati 11,9 foiz hamda kimyo va neft-kimyo sanoatining ulushi 9,4 foizni tashkil etdi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotimizga jalb etilgan investitsiyalar hisobiga jami ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar umumiy hajmida innovatsion tovar, ishlar va xizmatlarning ulushi 2008 yilda 2,85 foiz, 2009 yilda 2,83 foiz va 2010 yilda 2,82 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichni yanada yaxshilash uchun sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish, innovatsion loyihalarni moliyalash tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyot korxonalarini texnik-iqtisodiy modernizastiyalash, sanoatning ustuvor tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish, tashqi va ichki bozorlardagi talablarga javob beradigan raqobatdosh tovarlarni ko'paytirish va yangilarini yaratish innovatsion faoliyat tizimini shakllantirish hisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi. Buning uchun iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni tatbiq etadigan ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan innovatsiya qarorlarini qabul qilish uchun ichki va tashqi moliyalash manbalarini samarali jalb qilish tizimini ishlab chiqish bevosita iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Bu jarayonda investitsiyalardan samarali foydalanish eng qulay vositalardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillarini e'tiborga olish korxonalarda innovatsion muhitni yaxshilash bilan birga, istiqbolda texnologik jihatdan yangi, sezilarli darajada takomillashgan ishlab chiqarish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar uchun innovatsion mahsulotlar etkazib berishga ijobiy ta'sir etadi.

O'zbekiston lizing bozorida innovatsiyalarni joriy etish masalalari muhokama etildi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi o'quv markazi tomonidan O'zbekiston Lizing beruvchilari uyushmasi bilan birgalikda "Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovasiya va lizing" mavzusida seminar tashkil etildi.

Tadbir 14, 17 – 20 oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi binosida bo'lib o'tdi.

Seminarda O'zbekistonning yetakchi 20 ta lizing kompaniyalari va tijorat banklarining shuningdek, "O'zbek Lizing Interneshnl A.J." YOAJ QK, "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" OAJ, "Qurilish lizing" OAJ LK, "O'zmeliomashlizing" GLK, "O'zavtosanoat-Leasing" MCHJ LK, "Turonbank" OAK xodimlari ishtirok etdilar.

Seminarda O'zbekiston lizing bozoriga innovatsiyalarni joriy etishning aktual maslallari hamda mazkur yo'nalishdagi xorijiy davlatlarning tajribalari muhokama etildi.

Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar VII respublika yarmarkasida aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi vakillari ishtiroki 25 aprel 2014

Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar VII respublika yarmarkasida aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi vakillari ishtiroki

Joriy yilning 23-25 aprel kunlari poytaxtimizdagi «O'zekspomarkaz» milliy ko'rgazma kompaniyasida navbatdagi an'anaviy Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va

loyihalar respublika yarmarkasi bo'lib o'tmoqda. Mazkur ko'rgazmaning "Axborot texnologiyalari" bo'limida aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi vakillari ham bir qator loyihalari bilan ishtirok etmoqdalar.

Ko'rgazmada «UNICON.UZ» fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi, UZINFOCOM markazi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Yosh dasturchilarni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash markazi, "O'zbektelekom" AK, "O'zbekiston pochta" OAJ va sohaning boshqa bir qator korxonalari ishtirok etmoqdalar.

"O'zbektelekom" AK yarmarkada quyidagi ishlanmalari bilan ishtirok etmoqda:

- «Obyektlar holatini nazorat qilish universal sxemasi». Mazkur ishlanma onlayn rejimida qo'riqlanayotgan obyekt yonib ketishi, nam tushishi va ruxsat etilmaganlarning kirishi kabi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha obyektlar holatini nazorat qilish imkonini beradi.

- «Shahar energiya tarmog'ida uzilish va ruxsatsiz binoga kirishni nazorat etuvchi MSAN signalizatsiyasi». Mazkur MSAN ishlanmasi o'zida shahar energiya tarmog'ida uzilish va ruxsatsiz binoga kirish holati sodir bo'lish sxemasini va bu haqda EATS xodimlarini xabardor etib, signal berishni namoyish etadi. Mazkur ishlanmani joriy etish avariya holatlarni tezkor aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi, shuningdek, MSAN uskunasiga zarar yetkazish hamda o'g'irlashning oldini oladi.

- «MSAN energiya tarmog'ini haddan tashqari zo'riqlashdan himoya qilish sxemasi». Mazkur ishlanma o'zida, quvvat tarmog'ida, sakrash tarzida, energiya oshib ketishi yoki tushib ketishdek, o'zgarishlar bo'lgan damlarda akkumulyator ta'minotida MSAN uskunasidagi raqamli qurilmani namoyish etadi.

- Mahalliy bozor uchun CDMA-450 standarti bo'yicha mobil telefonlar va planshet kompyuterlarning ishlab chiqarishni tashkil etish.

- DSL standarti bo'yicha Home Gateway telekommunikatsiya uskunalarining ishlab chiqarilishi.

"UNICON.UZ" stendlarida quyidagi loyihalar namoyish etilmoqda:

- elektron hukumat tizimi moduli: «Ijro-intizomi» tizimi;

- lingafon kabineti uchun «Dialog-16» komplekt uskunalari;
- elektron jihozlarni ishlab chiqarish uchastkasi;
- avtomatlashtirilgan me'yoriy hujjatlar ma'lumotlar bazasi;
- "Axborot xavfsizligi va kriptografiya asoslari" elektron darslik qo'llanmasi.
- uMail.uz milliy elektron pochta xizmati;
- my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali;
- SMS-Gateway – interaktiv xizmati, mobil aloqa foydalanuvchilarini tashkilot va kompaniyaning bir qancha xizmatlaridan foydalanishlarini ta'minlaydi;

- CTRL – ID.UZ identifikatsiya kartasi asosida nazorat va hisoblash tizimi. OTM talabalari yoki xodimlarning ishga kelish-ketishlarini nazorat qilish, buxgalteriya bo'yicha turli hisobotlarni tayyorlash tizimi;

- Virtual ofis – biznes yoki tashkilotlarni boshqarishda masalalarni tezkor yechishga xizmat qiluvchi korporativ ma'lumotlar bazasi yoki axborot tizimlaridan foydalanish tizimi;

- Project manager – muayyan masala bo'yicha hamkorlikdagi ishlarni nazorat qilish vositasi. Qulay interfeys har bir xodimga ishini qulaylashtirishga va ko'zlangan maqsadga erishishiga yordam beradi;

- e-Darslik – mobil uskunalar uchun maktab, litse va kollejlar ta'lim dasturiga muvofiq, qulay, bepul, elektron darslik. Darslarni o'zlashtirish imkonini beradi.

BePro Markazi yarmarkada malakali dasturchilar tayyorlash bo'yicha istiqbolli ishlanmalari bilan ishtirok etmoqda. Turizm sohasiga axborot texnologiyalarini joriy qilish, qadimiy inshootlarning 3D-maketi, internet foydalanuvchilariga Xorazm viloyati madaniyati va o'tmishi, madaniyati va salohiyati haqida xabar beruvchi Xorazm viloyati arxitektura yodgorliklari.

Avtopark, kichik biznes va tadbirkorlar uchun UZGPS ning siljuvchi ob'ektlarini nazorat qilish tizimi, "Buxgalterlik hisobi", "Omborxona", "Kadrlar" kabi 1UZ dasturiy mahsulotlari. Shuningdek Markaz tomonidan ulgurji savdoga mo'ljallangan "Ulgurji savdo" avtomatlashtirish tizimi ham namoyish qilindi.

Yarmarkada TATU va uning hududiy bo'linmalari ham faol ishtirok etmoqdalar. Dasturiy mahsulotlar va apparat-dasturiy majmualar yaratish markazi multimedia xonalariga mo'ljallangan, xorijiy tillarni o'qitishga, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro interaktivlikka qaratilgan «LingoX» dasturiy majmuasi bilan ishtirok etmoqda.

TATU tadqiqotchilari tomonidan yana bir loyiha – internetdan endi foydalanilayotgan yoshlarga mo'ljallangan, o'zbek tilidagi interfeysga ega brauzer dasturini ham taqdim etmoqdalar.

“O'zbekiston pochta” tomonidan “Internet-obuna” avtomatlashtirilgan tizimi namoyish etilgan bo'lib, bu tizim yordamida internet orqali bosma mahsulotlarga obuna bo'lish, ularni xarid qilish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda mazkur loyihaning sinov-tajribasi olib borilmoqda.

Yarmarkada shuningdek O'zbekiston AT-assotsiatsiyasi ham milliy dasturiy mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda. Ularning ishtiroki yarmarka qatnashchilariga yurtimizda axborot texnologiyalari bozori rivoji, iqtisodiyot sektorlariga AKTni joriy qilinishi yuzasidan batafsil bilib olish imkonini beradi.

Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar VII respublika yarmarkasi 25 aprelga qadar davom etadi.

2.2 INNOVATION FAN TEXNOLOGIYA YANGILIKLARI

Universal egat-tirqish ochgich

Written by Super User

Taklif qilinayotgan ishda qator oralig'i har xil bo'lgan ekinlarni sug'orish uchun universal egat tirqish ochgich konstruksiyasini yaratish va uni ishlab chiqarishga tadbir etish ko'zlanadi.

Qatorlab ekiladigan ekinlarni sug'orishda unchalik chuqur bo'lmagan sug'orish egatlari ochilib, ular orqali ekin sug'oriladi. yerlar yaxshi tekislanmaganligi sababli suvchi butun egat bo'ylab suv oqimini kuzatib turishga majbur bo'ladi va suvni katta oqim bilan haydab bo'lmaydi.

Aks holda, past joylarni suv bosib ketadi, bu joylarda qatqaloq paydo bo'lib, namning bug'lanishini tezlashtiradi.

Ushbu xolat suvchining ish unumini pasaytirib yuboradi.

Sug'orish arig'ini universal egat-tirqish ochgich bilan kesilganda yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar barxam topadi. Sug'orish soni va suv sarfi kamayib, suvchining ish unumi ortadi.

Ishchi organ universal tarzda ishlatilganligi uchun operatsiyalarning metall sig'imi kamayadi.

Egat-tirqish ochuvchi agregatda ishchi organlar soni 2 ta. Bu ishchi organlar mavjud egat ochgich ramasiga qotirilib, traktorning orqa yetakchi g'ildiragi ketidan o'rnatiladi.

Egatning chuqurligi qator orasi kengligiga qarab 15-20 sm, tirqishni chuqurligi 10-15 smni tashkil qiladi. Har bir ishchi organning tortishga bo'lgan qarshiligi 1,3 - 1,5 kN ga teng.

Egat-tirqish ochuvchi ishchi organ poliz ekinlarini sug'orishda qo'llanilgan va xo'jaliklarda sinab ko'rilgan.

Fermer xo'jaliklarining talablariga ko'ra ishchi organni tayyorlab berish uchun buyurtma olish va xo'jalik shartnomalarini tuzish mumkin.

Kichik korxonalar uchun takomillashtirilgan don tozalash mashinasi

Written by Super User

Taklif qilinayotgan ishlanma bug'doyni tortishdan oldin uni turli xil yot aralashmalardan tozalash va namlashga mo'ljallangan.

Kichik fermer xo'jaliklaridagi un tayyorlash texnologiyasiga asosan bug'doy doni dastlab yot aralashmalardan tozalanadi, suv bilan namlanadi hamda namlangan donga biroz muddat dam berilgandan so'ng uni tegirmonda tuyiladi. Ushbu texnologiyada don tozalash jarayoni asosan qo'l kuchi bilan g'alvir yordamida bajariladi va natijada donni tozalash darajasi past va unumi kichik bo'ladi.

Tozalanmagan bug'doy tarkibidagi yot aralashmalar (mayda kesak, tosh, metall parchalari, qum va begona o't urug'lari) tayyorlangan un sifatini pasayishiga, ayrim hollarda un sifatini yaroqsiz holatga keltirishi va tegirmonning ishchi qismlarini ishdan chiqarishi mumkin.

Don kombinatlarida bu jarayonni bir-necha mashina va jihozlarda bajariladi. Bu mashina va jihozlarni kichik korxonalarga qo'yish uchun har doim iqtisodiy samara beravermaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, kichik korxonalar uchun quyidagi takomillashtirilgan don tozlash mashinasi taklif etiladi. Don tozalash mashinasidan foydalanish tufayli un tortuvchi tegirmonning asosiy ishchi organi maydalash valiklari kam yemiriladi.

Fermer xo'jaliklari va kichik korxonalarni bunday ixcham va samarali mashinalar bilan ta'minlash katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Bug'doy doni tarkibidan mineral chiqindilar (tosh, qum, kesak), metall parchalari va begona o't urug'larini bir vaqtning o'zida ajratilishi mumkin.

Yanchilmay qolgan bug'doy boshog'idan donni to'liq ajratib olinadi. Bug'doyni namlash jarayoni suvni purkab sepish orqali amalga oshirilishi natijasida oqava suvlar chiqmaydi.

Mashina konstruktsiyasi sodda, solishtirma ish unumi yuqori va elektr energiya sarfi kam.

Don tozalash mashinasining texnik xujjatlari ishlab chiqilgan, tajriba namunasi yaratilgan va sinab ko'rilgan.

Don tozalash mashinasini tayyorlash uchun fermer xo'jaliklaridan buyurtma olish va shartnoma tuzish mumkin.

Gabrobrakon ko'paytirish texnologiyasini elektrofaollashtirilgan suv asosida takomillashtirish

Written by Super User

Sanoat, halq va qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va u asosida mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini ko'tarishga erishish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini pasaytiradigan omillardan biri zararkunanda hashorotlardir.

Shuning uchun o'simliklarni ulardan himoya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi paxtachilik sohasida ham zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashish usullari sohaning eng muhim chora-tadbirlaridan biri bo'lib, unda zararkunadalarga qarshi kurashning kimyoviy, fizik-mexanik va biologik usullaridan keng foydalaniladi.

Bu usullar o'zining ishlab chiqarish sohasi, qo'llanilishi, qiymati, samaradorligi va atrof muhitga ta'siri bilan bir-biridan farq qiladi. Biologik usul ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarador usul hisoblanadi.

Innovatsion loyiha «Gabrobrakon ko'paytirish texnologiyasini elektrofaollashtirilgan suv asosida takomillashtirish»ga bag'ishlangan.

Taklif etilayotgan innnnovatsion loyihani qishloq xo'jalik sohasida qo'lash natijasida maxsulot tannarxi 1,2 marotabaga kamaytirilishga, ishlab chiqarish samaradorligi va maxsulot sifatini yaxshilashga erishiladi.

2004-2010 yillar davomida Namangan viloyati fermer xo'jaliklarida loyiha bo'yicha 20 mln. so'mdan ortiq shartnoma ishlari bajarilgan.

KIR-1,5 o'rgich maydalagich uchun xashkashli moslama

Written by Super User

Taklif qilinayotgan xashkashli moslama KIR-1,5 o'rgich-maydalagich uchun mo'ljallangan bo'lib, bedadan maydalangan pichan va senaj tayyorlashda hamda bug'doy somonini yig'ishtirib olishda ishlatiladi.

KIR-1,5 o'rgich-maydalagichning o'rish apparati orqa qismiga xashkashli moslama o'rnatilgan.

O'rgich-maydalagich xarakatlanganda qator uyumlar rotorli o'rish apparati yordamida yig'ishtirib olinadi va sug'oriladigan ariqchalar ichida qolib ketayotgan beda massasi xashkashli moslama yordamida to'planadi hamda o'rish apparatiga uzatib beriladi.

Xashkashli moslama egilgan tishlardan (diametri 8...10 mm li po'lat simlardan tayyorlangan) iborat bo'lib, bitta quvursimon ramaga mahkamlangan.

Har bitta tishning yuqori qismi prujinali shaklda tayyorlangan bo'lib, tish to'siqqa duch kelganda u ko'tarilib tushadi.

Xaskashli moslama tayanchli mexanizm orqali transport va ishchi holatga o'tkaziladi.

Taklif qilinayotan xaskashli moslama o'rnatilgan KIR-1,5 o'rgich-maydalagich fermer xo'jaliklarda joriy etilganda o'ziyurar ozuqa maydalagich kombaynlarini ishlatish shart bo'lmaydi va ekspluatatsion harajatlari 2,0...3,0 marta kamayadi.

Moslamani O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tassarufidagi mashina-traktor parklarida, chorvachilik va fermer xo'jaliklariga tadbiiq etish mumkin.

Moslama ishlab chiqarishga tadbiiq etilganda, takomillashgan o'rgich-maydalagich yordamida maydalangan pichan yoki senaj tayyorlash imkonini beradi, pichan yoki senaj tarkibidagi tuproq bilan ifloslanishi 4...8% ga kamayadi, ozuqa nobudgarchiligi 10...12 % ga kamayadi.

Xaskashli moslamaning maqbul parametrlari aniqlangan.

Kimyo fanidan elektron qo'llanma

Written by Super User

Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, mul timedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, komp yuter texnikasi bilan mustahkamlash ustuvor masalalaridan biri deb belgilangan.

Elektron o'quv qo'llanma Power Point dasturida tayyorlanib, unda kimyo fanining dars mavzusi rejasi, reja bo'ycha ma'lumotlar, tayanch so'z va iboralar, nazorat uchun savollar, hamda foydalanilgan adabiyotlar animatsiyalashtirilgan shaklda keltiriladi.

Kimyo fanidan elektron o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining nokimyoviy yo'nalishlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar uchun mo'njallangan bo'lib, uning ta'lim jarayonida tadbiiq etish natijasida talabalarni kimyo fanidan bilim va o'zlashtirish darajasi ortadi, talabalarda ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Elastik zvenoli tishli borona

Written by Super User

Borona ramaga elastik zvenoli tortqilar va xalqalar orqali bog'langan ishchi zvenolardan iborat. Monolit qilib tayyorlangan ishchi zvenolar tish asosi va tishdan tuzilgan bo'lib, ular ham o'zaro halqalar bilan biriktirilgan. Halqa bilan tish asosi bir-biri bilan o'zaro qo'zg'aluvchan kinematik juft hosil qiladi.

Bu esa ishchi zvenolarni uchta tekislik bo'yicha tebranma harakat qila olish imkoniyatini yaratadi.

Quyish usuli bilan tayyorlangan ishchi zvenolar keraklicha o'lchamda yig'iladi.

Tishli boronalar to'plami elastik zvenolar orqali ramaga o'rnatilganligi sababli ko'ndalang va bo'ylama tebranish hosil qiladi.

Bu esa tuproq yuzasiga bir tekis ishlov berishni va kesaklarni maydalanishini yaxshilaydi.

Taklif qilinayotgan borona maxalliy xom-ashyodan tayyorlanadi, seksiyalarning tannarxi arzon va ish unumdorligi yuqori.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi fermer xo'jaliklarda tadbqiq etilishi mumkin.

Tukli paxta chigitlarini namlash va biologik qo'zg'atish texnologiyasi

Written by Super User

Taklif qilinayotgan ishda tukli chigitni ekish oldidan namlash, biologik qo'zg'atish va qo'shimcha saralash yo'li bilan dala unuvchanligini oshirish va kam me'yorda ekish texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbqiq etish ko'zlanadi.

Tukli chigitlarni seyalkaning ekish apparatidan bir tekis tushishini ta'minlash va erta undirib olish uchun ular namlanadi.

So'ngi yillarda olimlar chigitlarni biologik qo'zg'atish yo'li bilan ularni unuvchanligini va paxta hosildorligini oshirish texnologiyasini ham ishlab chiqdi.

Biroq bu jarayonlar maxsus maydonchalarda qo'l kuchi bilan bajarilib kelinmoqda. Qo'lda namlangan va biologik qo'zg'atilgan chigitni namlanish tekisligi 56,8-62,2 % ni,

to'liq namlanishi 50,2% ni tashkil qiladi va ular 1,7% dan 6,2% gacha qo'shimcha mexanik sinadi.

Qo'lda aralashtirish jadal bo'lmaganligi sababli chigitga beriladigan biologik qo'zg'atuvchi elementlar chigit massasida bir xil taqsimlanmaydi. Bu chigitlarning dala unuvchanligi 45,7-63,4% ni tashkil qiladi.

Paxtachilik fermer xo'jaliklarida chigitlarni ekish oldidan namlaydigan, biologik qo'zg'atuvchi elementlar bilan ishlov beradigan va ularni kam me'yorda ekishga tayyorlash texnologiyasi va texnik vositalari mavjud emas.

Texnologiyani O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tassarufidagi fermer xo'jaliklariga, paxta yetishtiruvchi Mustaqil Davlatlar Hamkorligidagi davlatlarga tijoratli tadbiq etish mumkin.

Texnologik liniyaning bir soatdagi ish unumi 2,5 tonnani tashkil qiladi.

Bitta liniya 1000-1800 gektar maydonga chigit tayyorlab bera oladi.

Buyurtmaga binoan har xil ish unumiga ega bo'lgan liniyani tayyorlab berish mumkin.

Texnologiyani joriy qilinganda: ekishga tayyorlangan chigitni sifat ko'rsatkichlari ortishi evaziga ekish materiali gektariga 5-15 kg tejaladi; maydonlarda erta, sog'lom, bir tekis, to'liq kuchat olinadi va buning evaziga paxta 10-15 kun erta yetiladi; yuqori navli paxta ulushi va hosildorlik 3-5 tsG'ga ortadi; mehnat sarfi 84,3% ga kamayadi; sarflangan har bir 1 so'mga 2,5-4,0 so'm foyda olinadi.

Foydali modelga guvohnoma, biologik kuchaytirgich uchun patent olingan. Texnologiya xo'jaliklarda sinovdan o'tgan. Dalolatnoma va bayonnomalar mavjud.

Binolar modellari seysmik mustahkamligini baholash sinov vibrostendi

Written by Super User

Hozirgacha jahon qurilish amaliyotida seysmik mustahkamlikni oldindan baholash masalasi dolzarb masalalardan biridir.

Yer yuzida sodir bo'layotgan zilzilalar va ularning oqibatlarini, ayniqsa, yakka tartibdagi turar-joy binolari seysmik mustahkamligini baholash masalasiga bo'lgan e'tiborni kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun bugungi kunda rivojlangan davlatlarda bu sohada olimlar jadal ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Mazkur yo'nalishda Namangan muhandislik-pedagogika institutining "Binolar va sanoat inshootlari qurilishi" kafedrasida ham 2009 yildan buyon ITD-16-015- «Yakka tartibdagi turar-joy binolarini oldindan seysmik mustahkamligini aniqlash» mavzusidagi davlat grant loyihasi tadqiqotlari bajarib kelinmoqda.

Izlanishlar davomida Respublikamizda qurilayotgan yakka tartibdagi turar-joy binolari qurilishi, jahon amaliyotida qo'llanilayotgan seysmik mustahkamlikni oldindan aniqlash sinov seysmik vibroqurilmalari sohasida erishilgan tajribalar tahlil qilib chiqildi.

Ilmiy -tadqiqotlar asosida 2009 yil yakunida yakka tartibdagi turar-joy binolarini oldindan seysmik mustahkamligini aniqlash" uchun 800x1200x1000 mm o'lchamdagi yangi seysmik vibroqurilma-vibroplatforma tajriba-sinov model konstruksiyasining loyihasi ishlab chiqildi.

2010 yilda binolar modellari seysmik mustahkamligini baholash vibrostendining sinov-tajriba nusxasini tayyorlash ishlari amalga oshirildi.

Bu yangi seysmik vibrostend yordamida binolar modellarini oldindan eksperimental sinash, ularni seysmik mustahkamligini aniqlash va baholash mumkin.

Qaysi sohada qo'llanilishi: oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va qurilish laboratoriyalari.

Tayyorgarlik darajasi: tajriba-sinov namunasi.

Kutilayotgan natijalar: yakka tartibdagi turar-joy binolari modellarini zilzilabardoshlikka sinash, ularni seysmik mustahkamligini aniqlash va baholash.

2.3 «O‘zbektelekom» AK Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar VII Respublika yarmarkasida

21 Aprel 2014 yil



2014-yil 23-25-aprel kunlari «O‘zekspomarkaz» MKM» OAJ 1-pavilyonida Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar VII Respublika yarmarkasi o‘tkaziladi. Aloqa, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalari yarmarkada bir necha stendlar bilan ishtirok etadi.

Yarmarkada «O‘zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasi quyidagi ishlanmalar bilan ishtirok etadi:

- **«Obyektlar holatini nazorat qilish universal sxemasi».** Mazkur ishlanma onlayn rejimida qo‘riqlanayotgan obyekt yonib ketishi, nam tushishi va ruxsat etilmaganlarning kirishi kabi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha obyektlar holatini nazorat qilish imkonini beradi.

- **«Shahar energiya tarmog‘ida uzilish va ruxsatsiz binoga kirishni nazorat etuvchi MSAN signalizatsiyasi».** Mazkur MSAN ishlanmasi o‘zida shahar energiya tarmog‘ida uzilish va ruxsatsiz binoga kirish holati sodir bo‘lish sxemasini va bu haqda EATS xodimlarini xabardor etib, signal berishni namoyish etadi. Mazkur ishlanmani joriy etish avariya holatlarni tezkor aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi, shuningdek, MSAN uskunasiga zarar yetkazish hamda o‘g‘irlashning oldini oladi.

- **«MSAN energiya tarmog‘ini haddan tashqari zo‘riqishdan himoya qilish sxemasi».** Mazkur ishlanma o‘zida, quvvat tarmog‘ida, sakrash tarzida, energiya oshib ketishi yoki tushib ketishdek, o‘zgarishlar bo‘lgan damlarda akkumulyator ta‘minotida MSAN uskunasidagi raqamli qurilmani namoyish etadi.

- **Mahalliy bozor uchun CDMA-450 standarti bo‘yicha mobil telefonlar va planshet kompyuterlarning ishlab chiqarishni tashkil etish.**

•DSL standarti bo'yicha Home Gateway telekommunikatsiya uskunalarining ishlab chiqarilishi.

VII innovatsion yarmarkasida 5ta yo'nalish: sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va farmatsevtika, axborot texnologiyalari, fan va ta'lim, shuningdek, transfer texnologiyasi bo'yicha innovatsion ishlanmalar namoyish etiladi.

Ekspozitsiya «O'zekspomarkaz» Milliy ko'rgazmalar majmuasi 1-pavilyonida joylashtiriladi.

«O'zbektelekom» - AK butun O'zbekiston Respublikasi hududini o'z tarmoqlari bilan qamrab olgan yirik telekommunikatsiyalar operatoridir. Kompaniya quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi: qayd etilgan va mobil aloqa operatorlari hamda provayderlariga kanallarni ijaraga berish bo'yicha xizmatlarni, xalqaro va shaharlararo aloqa xizmatlari, ovozli aloqa va ma'lumotlar uzatish xizmatining barcha turlarini, Internet tarmog'idan foydalanish, videokonferensaloqa xizmatlarini, CDMA va GSM standartida mobil aloqa xizmatlarini taqdim etadi, televizion va radioeshittirish dasturlarini uzatish uchun kanallar tashkil etadi. Kompaniyaning bozordagi xizmatlari to'rtta —UZTELECOM™, UZMOBILE™, UZONLINE™ va TELECOM TV™ savdo belgilari ostida ko'rsatiladi. Kompaniya tarkibida 22ta filial faoliyat yuritadi, ulardan 14 tasi mintaqaviy, 8 ta ixtisoslashtirilgan va 3 tasi sho'ba korxonasidir. Kompaniya xodimlarining soni 2014-yil oxiriga kelib, 14 ming nafarni tashkil etdi. «O'zbektelekom» AK Mobil va qayd etilgan, shaharlararo va xalqaro aloqa, ma'lumotlar uzatish va Internet xizmatlari ko'rsatuvchi sakkizta qo'shma korxonalarda o'z ulushiga ega.

VI INNOVATSION G‘OYALAR, TEXNOLOGIYALAR VA LOYIHALAR RESPUBLIKA YARMARKASI



Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazijoriy yilning 24 aprel kuni boshlangan “VI Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasida” ishtirok etmoqda.

Mazkur yarmarkada Markaz tomonidan yaratilgan elektron axborot-ta’lim resurslar va dasturiy tizimlari taqdim etilmoqda.

Ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun tayyorlangan elektron axborot-ta’lim resurlar ko‘rgazma ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

“O‘zekspormarkaz”da bu yil oltinchi marta o‘tkazilayotgan yarmarka O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi tomonidan tashkil etildi.

Unda vazirliklar, idoralar, banklar, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, fermer xo‘jaliklari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi institutlari, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy markazlar hamda tajriba-konstruktorlik tashkilotlari keng ishtirok etmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki korxona istiqbolini belgilashda o'zgarib borayotgan iqtisodiy ijtimoiy muhit talablariga moslashish kunsayin tadbirkorlik ilmining asosiy amaliy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Istiqboliy o'zgarishlarning imkon boricha yuqori aniqlikda seza bilish, raqobat kurashida samarali uslublardan va shakllardan foydalanish borasidagi nazariy izlanishlar tez orada rivojlanayotgan korxonalarning amaliy tajribasiga aylanmoqda. Har bir xo'jalik sub'ekti o'ziga xos bo'lgan, antiqa innovatsion strategiyalarni tanlashi, raqobatda Yangiliklarni tadbiq qilish bilan bo'lgan kutilmagan tadbirlarni amalga oshirishi natijasida biznes sohasida yangi rivojlanish yo'llari, uslublariga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Respublikamizning korxona va tashkilotlarining jaxon bozorlarida o'z o'rnilarini topishlarida rivojlangan va etakchi kompaniyalar tajribalarini o'rganishlari, ularning innovatsion boshqaruv faoliyatlarini va taktik tadbirlarini kuzatishlari zarur bo'ladi. Chunki xorijiy firmalar bilan iqtisodiy, ilmiy xamkorlik sohalarini belgilashda "manfaatlar yakdilligi"ni ta'minlashda xar bir tadbirkor va xo'jalik sub'ekti o'zining maqsadlari, uzoq va qisqa muddatli strategiyasini, innovatsion siyosatini aniq belgilab olishi lozim. Fikirimizcha Farg'ona viloyatidagi sanoat korxonalari o'zining istiqbollik biznes strategiyasini va innovatsiyalarini tanlash baxolash va amalga oshirish uchun muxim bo'lgan xulosalarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin. Korxona o'z istiqbolini belgilashda dastavval "korxona qaysi tarmoqda (sohada) faoliyat yuritmoqda?" emas, balki "korxona qanday talab va bozor uchun faoliyat yuritishi samarali" degan savolga javob topish zarur.

Innovasion faoliyat boshqaruvi to'xtovsiz, to'ldiruvchan, murakkab jarayon bo'lib, u doimiy rivojlanishda, yangi imkoniyatlar va vaziyatlarni vujudga keltiruvchi muxim vosita bo'lib xisoblanadi. Korxona ko'lamida belgilangan strategiya doimiy baxolashni, taxlil qilishni va aksi aloqani talab etuvchi murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Raqobatbardoshlikni taxlil qilish va raqobatchi korxonalar mavqeini baxolash, kelgusida yangi innovasion loyixalarni ishlab chiqishda, ichki imkoniyatlar va xavf-xatarlarni o'z vaqtida anglashga muxim zamin yaratadi. Taxliliy uslublarni qo'llash

asosida raqobatbardoshlik mavqeilariga tezkor baxo berish, kelgusi tadbirlarni aniqlash imkoni vujudga keladi.

Tashqi muxit talablarining o'zgarishi va unga moslashishida ijobiy va salbiy favqulotda xolatlar bilan bir qatorda imkoniyatlar va cheklanishlar yuzaga keladi. Ularning korxona maqsadi, strategiyasi salohiyati va rivojlanishiga ta'sirini o'z vaqtida anglamoq va aniqlay olmoq lozim.

Taklif o'rnida shularni keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz chun har bir sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkil etilsa va chet el tajribalariga tayangan holda viloyatdagi sanoat korxonalarida ish olib borilsa albatta bu kelajakda o'z samarasini beribgina qolmay aholi turmush darajasini birmuncha rivojlanishiga ham olib keladi va raqobatbardosh mahsulotlar turini ko'payishiga olib keladi.

Shunday innovatsion boshqaruv faoliyatini Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda «Uzsalaman» OAJ shakldagi QKda shunday bo'lim tashkil etilsa va bu innovatsion faoliyat boshqaruviga sarflanadigan harajatlar quyidagilardan tashkil topadi.

- Ish haqi harajatlari
- Ish haqidan ajiratma
- Amortizsiya harajatlari

Bundan tashqari jamiyatning hozirgi kunda 30 foizli quvvat bilan faoliyat olib borilyotgani hisobga olsak «Uzsalaman» OAJ shaklidagi QKning amortizatsiya harajatlari majlum bir vaqt muzlatilib yoki kelgusi davr harajatlariga olib o'tilib turilsa korxonaning sof foydasi maksimal darajaga etishi mumkin. Bu foyda evaziga konrhona quyidagi ishlarni amalga oshirib bozordagi mavqeni ancha ijobiy holga keltirish imkoni bo'ladi.

- Eskirgan uskunalarni yangilashga safarbar etish
- Mahsulot sifatini oshirishga safarbar etish
- Mahsulot dizaynini yangilashga safarbar etish

Shu o'rinda yana bir taklifni keltirib o'tmoqchimiz «Uzsalaman» OAJ shakldagi QK kam harajatlar evaziga o'zining innovatsion faoliyat boshqaruvini takomillashtirish imkoni taklif qilamiz. Agar jamiyat ilmiy tadqiqot muassasalari hamda tashkilotlar,

loyiha- konstruktorlik tashkilotlari bilan innovatsion faoliyat boshqaruvi bo'yicha shartnomalar tuzsa korxona uchun kam harajatli va samarali faoliyat bo'libgina qolmay Farg'ona viloyatidagi muassaalar va oliygohlar uchun yangi ilmiy taddqiqot ishlarini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'lardi. Shu o'rinda yana bir ta'klifni keltiramiz jamiyat o'zining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida korxona bo'sh turgan ob'klarini ijaraga berib, undan biznesinkubatorlar evaziga foydalanishga bersa bu faoliyat ham korxonaning daromadi oshishiga olib keladi.

Yana bir taklif etilayotgan fikir bu korxonada yangi tur dizaynga ega bo'lgan bolalar poyafzalini ishlab chiqarish albatta bu jarayon harajatsiz, harakatsiz amalga oshmaydi. Shuning uchun jamiyatga chet el investori tomonidan investitsiya jalb etilsa istiqbollik rejalarni amalga oshishiga keng yo'l ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. “CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni ximoya qilish choralari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 1998 yil 30 aprel.
2. “Investitsiyalari faoliyati to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1998y 24 dekabr
3. “CHet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi qonuni 1994 yil 5 may
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997, - 326 b.
6. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo‘limiz. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 156 b.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 96 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 80 b.
10. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zi. // Xalq so‘zi, 2010 yil 1 sentyabr.
11. Bochkareva T.A. Zarubejniy opit gosudarstvennogo strategicheskogo upravleniya innovatsiyami. M.: «Perspektiva», 2007g.
12. Vcherashniy R., Suxarev O. Innovatsii — instrument ekonomicheskogo razvitiya // Investitsii v Rossii. 2006. № 10. S.28.

13. Voronin S.A. Sovershenstvovanie mexanizmassenoobrazovaniya i nalogooblojeniya kak predposilka ustoychivogo razvitiya ekonomiki.T., 2009.
14. Voronin S.A. Nalogooblojenie kak instrument stimulirovaniya innovatsiy. // «Obshestvennie nauki v Uzbekistane», №1, 2009g., s.29-34.
15. Giryanskiy V. Innovatsionnie itogi. O pervoy respublikanskoy yarmarke innovatsionnix idey i proektov. Ekonomicheskoe obozrenie.2008. №5. 48s.
16. Djumaboev A.B. i dr. Nekotorie innovatsionnie problemi integratsii vuzovskoy nauki s malimi i promishlennimi predpriyatiyami. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni Muvofiklashtirish qo'mitasi. : 6-8 oktabr, Toshkent.2008.109b.
17. Glazev S.YU. Razvitie Rossiyskoy ekonomiki v usloviyax globalnix texnologicheskix sdvigov.M.: Nauka, 2010g
18. Glazev S., Ayufova Z. Rossiya i VTO: preimushstva i poteri. //Nash sovremennik. 2005. № 2.
19. Glazev S.YU. Mirovoy ekonomicheskij krizis kak protsess zamesheniya dominiruyushix texnologicheskix ukladov. M.: Nauka, 2009
20. Gluxarev K.A. Istochniki finansirovaniya investitsionno-innovatsionnoy deyatel'nosti. // Innovatsii. 2008. - №6.
21. Golichenko O.G. Natsionalnaya innovatsionnaya sistema Rossii: sostoyanie i puti razvitiya. M.: Nauka, 2006.
22. Goncharova E. B. Globalizatsiya kak mexanizm formirovaniya natsionalnoy sistemi innovatsionnogo razvitiya regiona. // Innovatsii. 2007. № 7. S. 55.
23. Gracheva N.V. Sistemniy podxod k postroeniyu modeli makroregulirovaniya innovatsionno-investitsionnogo i obshestvennogo razvitiya. M.: Noosfera, 2005
24. Gromeko V.I. SSA: nauchno-texnicheskij potentsial. M.: Misl', 2007.
25. Gulyamov S.S. Ilm-fan-iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksalish omili. T.: 2008.
26. Druker P.F. Rinok: kak viyti v lideri. Praktika i principi. M., 1992. S. 30-45.
27. Dudchenko V.S. Osnovi innovatsionnoy metodologii. M.: 2001. S. 35-36

28. Doklad Instituta Yevropi. //In-t Yevropi; № 197. 2008g.
29. Doklad omirovom razvitii 2004 goda, kak povisitʹ effektivnost uslug dlya bednogo naseleniya. Perev.s angl. M., Izd. Ves mir, 2005, 352s, <http://www.infra-m.ru>
30. Doklad o razvitii chelovecheskogo potentsiala v stranax Yevropi i SNG, M., Izd. Prava cheloveka, 2006, 114 s. [http://www. UNDR. RRQO/RBEC](http://www.UNDR.RRQO/RBEC)
31. Zeynalova L.A. Investitsionnie prioriteti strukturnix preobrazovaniy v promishlennosti v usloviyax rinochnix otnosheniy. Avtoref.dis. na soisk.uch.st. k.e.n. Baku, 2005, 25 s.
32. Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshestva v sovremennuyu epoxu. //Ekonomist. № 4. 2008 g. S. 6.
33. Irmanov A. O formirovanii effektivnix mexanizmov vzaimodeystviya mejdunarodnoy konferensii. chastnim biznesom, naukoy i gosudarstvom. Nauchnie trudi mejdunarodnoy konferensii. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni Muvofiklashtirish qoʻmitasi. : 6-8 oktyabrʹ, Toshkent.2008.88b.
34. Isoqova T., Sobirov U. Bandlik va dehqon xoʻjaliklari. Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi. 2001. №3. 19 – 20 b.
35. Isxakov A.,Urmanova D. Korxonalarning innvotsion faoliyatini baxolash usullari. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni Muvofiqlashtirish qoʻmitasi. : 6-8 oktabr ,Toshkent.2008.140b.
36. Kadirov A.M. i dr. Organizatsionno-ekonomicheskii mexanizm formirovaniya i realizatsii innovatsionnoy politiki. T.: TGTU.2005.195s.
37. Kitova G.A., CHerkasov V.V. Gosudarstvennaya politika v sfere nauki i novix texnologiy: novie zadachi i starie resheniya //Innovatsii. 2008. №3.S. 3.
38. Kodirova N.SH. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida innovatsiyalarning oʻrni. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni Muvofiqlashtirish qoʻmitasi. : 6-8 oktyabrʹ, Toshkent.2008.137b.
39. Yusupova N.M. Problemi aktivizatsii innovatsionnoy deyatelnosti v Uzbekistane issenovaya i nalogovaya politika gosudarstva //Obshestvo i ekonomika, 2007g. № 2-3, Moskva.

40. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
41. <http://www.cbu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning rasmiy sayti
42. <http://www.fnpz.uz> – Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodining rasmiy sayti.
43. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasining Xukumat portal.
44. <http://www.prezident.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
45. <http://www.ziyonet.uz> – Axborot ta’lim tarmog‘i.